

TEXNIKUMLARDA DUAL TA'LIM

QAMROV, HUDUDIIY TAFOVUTLAR VA
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI



2026-yil 30-may holatidagi Prof-emis.edu.uz
ma'lumotlari asosida axborot-tahliliy sharh

**«TEXNIKUMLARDA DUAL TA'LIM: QAMROV, HUDUDIIY
TAFOVUTLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI»**

2026-yil 30-may holatidagi Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida axborot-tahliliy sharh

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

I. KIRISH	4
1.1. Tahlilning dolzarbligi	4
1.2. Tahlilning maqsadi va vazifalari	5
1.3. Tahlil obyekti va qamrovi	6
1.4. Ma'lumotlar manbai va tahlil davri	6
II. NORMATIV-HUQUQIY VA METODOLOGIK ASOSLAR	8
2.1. Dual ta'limning mazmuni va asosiy xususiyatlari	8
2.2. Dual ta'limning milliy normativ-huquqiy asoslari	9
2.3. Dual ta'lim qamrovini baholash indikatori	11
2.4. Texnikumlarni tahliliy guruhlariga ajratish mezonlari	12
2.5. Dual ta'lim qamrovi indikatorini hisoblash metodikasi	13
2.6. Indikator bo'yicha reyting balini hisoblash tartibi	14
2.7. Ma'lumotlarni talqin qilish shartlari va tahlil doirasi	15
III. RESPUBLIKA BO'YICHA DUAL TA'LIM QAMROVI VA MAQSADLI KO'RSATKICHLAR	17
3.1. Dual ta'lim qamrovining umumiy holati	17
3.2. Amaldagi qamrovning maqsadli ko'rsatkichlarga nisbatan holati	18
3.3. Dual ta'limda o'quvchilar qayd etilmagan texnikumlardagi imkoniyatlar	19
3.4. Dual ta'lim qamrovini oshirish bo'yicha tahliliy ssenariylar	20
IV. DUAL TA'LIMGA QABUL VA BOSQICHLAR KESIMIDAGI QAMROV	23
4.1. 2025/2026 o'quv yilida dual ta'limga qabul holati	23
4.2. Yangi qabulda dual ta'lim ulushini oshirishning shartli ssenariysi	23
4.3. Bosqichlar kesimida dual ta'lim qamrovi	24
V. TEXNIKUMLAR GURUHLARI VA MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA DUAL TA'LIM QAMROVI	26
5.1. Texnikumlarning tahliliy guruhlar bo'yicha tarkibi	26
5.2. Texnikumlar guruhlar bo'yicha dual ta'lim qamrovi	26
5.3. Nodavlat texnikumlarda dual ta'lim qamrovi	28
VI. DUAL TA'LIM QAMROVI DARAJALARI BO'YICHA TEXNIKUMLAR TAQSIMOTI	29
6.1. Qamrov oraliqlari bo'yicha umumiy taqsimot	29
6.2. Qamrovi past bo'lgan texnikumlarda o'quvchilar taqsimoti	30
6.3. Qamrovi yuqori bo'lgan texnikumlar va dual o'quvchilar taqsimoti	32
VII. HUDUDLAR KESIMIDA DUAL TA'LIM QAMROVI	34
7.1. Hududlar bo'yicha umumiy ko'rsatkichlar	34
7.2. Dual ta'lim o'quvchilarining hududiy bo'yicha taqsimoti	35
7.3. Dual ta'limda o'quvchilar qayd etilmagan texnikumlarning hududiy taqsimoti	37
7.4. Hududlarni 20 foizlik qamrov darajasiga yetkazish ehtiyoji	39

VIII. KASB VA MUTAXASSISLIKLAR KESIMIDA DUAL TA'LIM QAMROVI.....	43
8.1. Dual ta'lim kontingentining asosiy yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti	43
8.2. Dual ta'lim qayd etilmagan yo'nalishlar	45
IX. TEXNIKUMLAR KESIMIDA INDIKATOR NATIJALARI.....	47
9.1. Asosiy reyting guruhidagi yetakchi texnikumlar	47
9.2. Indikator natijalarini talqin qilish.....	49
X. XALQARO TAJRIBA VA DUAL TA'LIM SIFATI MEZONLARI	50
10.1. Sifatli dual ta'limning xalqaro mezonlari	50
10.2. Germaniyada dual kasbiy ta'limni tashkil etish va sifatni nazorat qilish	51
10.3. Shveysariyada dual ta'limni hamkorlik asosida boshqarish.....	52
10.4. Xalqaro yondashuvlarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....	54
XI. YAKUNIY XULOSALAR VA AMALIY TAVSIYALAR.....	56
11.1. Tahlilning asosiy xulosalari.....	56
FOYDALANILGAN MANBALAR.....	58
ILOVALAR	60
1-ilova. Asosiy reytingda ishtirok etuvchi 556 ta davlat texnikumining indikator natijalari.....	60
2-ilova. Reytingi alohida yuritiladigan 28 ta maxsus maqomdagi texnikumning indikator natijalari	74
3-ilova. Nodavlat sektordagi 51 ta texnikumning indikator natijalari.....	75
4-ilova. 2025-yilda bitiruvchilari mavjud bo'lmagan 44 ta davlat texnikumining indikator natijalari.....	77

I. KIRISH

1.1. Tahlilning dolzarbligi

Iqtisodiyot tarmoqlarida texnologiyalar, ishlab chiqarish jarayonlari va kasbiy talablarning jadal o'zgarishi ta'lim tizimi oldiga mehnat bozori ehtiyojlariga mos, amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'ymoqda. Bunday sharoitda kasbiy ta'lim dasturlarining mazmunini ish beruvchilar talablari bilan uyg'unlashtirish, o'quvchilarning real mehnat muhitida tajriba orttirishini ta'minlash hamda ta'limdan bandlikka o'tish jarayonini yengillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dual ta'lim **texnikumdagi nazariy tayyorgarlikni korxona yoki tashkilotdagi amaliy o'qitish bilan uyg'unlashtirishga asoslangan ta'lim modeli** hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga kasbiy bilimlarni ish jarayonida qo'llash, zamonaviy uskuna va texnologiyalar bilan ishlash hamda muayyan kasb uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ish beruvchilarning ta'lim dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishdagi ishtiroki tayyorlanayotgan kadrlar malakasini mehnat bozori talablariga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotda ish joyida o'qitish kasbiy ta'limning mehnat bozoriga mosligini ta'minlovchi muhim mexanizmlardan biri sifatida qaraladi. OECD yondashuviga ko'ra, kasbiy ta'lim tizimining samaradorligi ta'lim tashkilotlari, ish beruvchilar va ijtimoiy hamkorlarning ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda ish joyida o'qitishni tashkil etishdagi ishtiroki bilan bog'liq.¹

Xalqaro mehnat tashkilotining 208-son tavsiyasida esa sifatli shogirdlik dasturlari yozma shartnoma, ish joyida va ta'lim tashkilotida o'qitishning uyg'unligi, munosib to'lov, ijtimoiy himoya, mehnat xavfsizligi, malakali ustoz hamda tan olinadigan yakuniy malaka bilan ta'minlanishi lozimligi belgilangan.²

O'zbekistonda ham kasbiy ta'limni iqtisodiyot tarmoqlari va ish beruvchilar ehtiyojlari bilan bog'lash, o'quvchilarning amaliy tayyorgarligini

¹ OECD. *Vocational Education and Training (VET)*.

URL: <https://www.oecd.org/en/topics/vocational-education-and-training-vet.html> (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

² International Labour Organization. *Quality Apprenticeships Recommendation, 2023 (No. 208)*.

URL: <https://www.ilo.org/resource/other/r208-quality-apprenticeships-recommendation-2023> (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

kuchaytirish hamda dual ta'lim qamrovini kengaytirishga qaratilgan choralar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son qarorida **2030-yilgacha texnikum o'quvchilarining 40 foizini dual ta'lim shakliga qamrab olish** maqsadi belgilangan.

Tahlilga kiritilgan **679 ta** texnikumda **442 227 nafar** o'quvchi tahsil olgan. Shundan **60 654 nafari dual ta'lim shaklida** qayd etilgan bo'lib, tahlil qamrovi doirasidagi ulush **13,7 foizni** tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich 2030-yil uchun belgilangan 40 foizlik maqsadga erishish uchun dual ta'lim qamrovini kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bois dual ta'limning joriy holatini faqat umumiy qamrov ko'rsatkichi asosida emas, balki hududlar, texnikumlar, bosqichlar, kasb va mutaxassisliklar kesimida ham baholash zarur.

1.2. Tahlilning maqsadi va vazifalari

Sharhning maqsadi texnikumlarda dual ta'lim qamrovining joriy holatini baholash, natijalarni hududlar, texnikumlar, ta'lim bosqichlari, kasb va mutaxassisliklar kesimida qiyoslash hamda dual ta'lim qamrovini kengaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun:

- dual ta'lim qamrovini respublika, hududlar, texnikumlar, mulkchilik shakllari, bosqichlar hamda kasb va mutaxassisliklar kesimida tahlil qilish;

- dual ta'lim qamrovi yuqori va past bo'lgan, shuningdek, dual ta'lim bo'yicha nol natija qayd etilgan texnikumlarni aniqlash;

- **2026-yil uchun shartli qabul qilingan 20 foizlik oraliq mezon va 2030-yilgi 40 foizlik maqsadli ko'rsatkich** asosida amaldagi holatni baholash;

- dual ta'limni tashkil etish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish va milliy amaliyot bilan qiyoslash;

- ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish va dual ta'lim qamrovini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

1.3. Tahlil obyekti va qamrovi

Tahlil obyekti – texnikumlarda dual ta’limning tashkil etilishi va uning o’quvchilarni qamrab olish holati.

Tahlil predmeti sifatida dual ta’limda tahsil olayotgan o’quvchilar soni va ulushi, Kasbiy ta’lim tashkilotlari milliy reytingi (keyingi o’rinlarda – milliy reyting)ning 16-indikator natijalari, shuningdek, mazkur ko’rsatkichlarning texnikumlar guruhlari, mulkchilik shakllari, hududlar, ta’lim bosqichlari, kasb va mutaxassisliklar bo’yicha taqsimoti o’rganildi.

Tahlil qamroviga Prof-emis.edu.uz tizimida o’quvchilar kontingenti to’g’risidagi ma’lumotlari shakllangan **679 ta** texnikum kiritildi. Ma’lumotlari to’liq shakllanmagan **16 ta** texnikum tahlilga kiritilmadi. Shu sababli hisobotdagi umumlashtirilgan ko’rsatkichlar mazkur **679 ta** texnikum doirasida hisoblangan.

Tahlilga quyidagi texnikumlar guruhlari kiritildi:

- milliy reytingda ishtirok etuvchi **556 ta davlat texnikumi**;
- bitiruvchilari mavjud bo’lmagan **44 ta davlat texnikumi**;
- alohida reyting yuritiladigan **28 ta maxsus maqomdagi davlat texnikumi**;
- **51 ta nodavlat texnikum**.

Shu tariqa, davlat texnikumlar soni **628 tani**, nodavlat texnikumlar soni esa **51 tani** tashkil etadi. Texnikumlarni guruhlarga ajratish ularning natijalarini tashkiliy xususiyatlari va faoliyat sharoitlarini hisobga olgan holda qiyoslash imkonini beradi.

1.4. Ma’lumotlar manbai va tahlil davri

Tahlilning asosiy ma’lumotlar manbaini **Prof-emis.edu.uz axborot tizimining 2026-yil 30-may holatidagi ma’lumotlari** tashkil etadi.³ Mazkur tizimdan texnikumlar, ularda tahsil olayotgan o’quvchilarning umumiy kontingenti, dual ta’lim shakli bilan qamrab olingan o’quvchilar soni, ta’lim bosqichlari, kasb va mutaxassisliklar hamda hududiy joylashuvga oid ma’lumotlar olingan.

Ma’lumotlar texnikumlar kesimida umumlashtirildi hamda ularning o’zaro mantiqiy va arifmetik muvofiqligi tekshirildi. Dual ta’lim qamrovi dual

³ Prof-emis.edu.uz axborot tizimi.

URL: <https://prof-emis.edu.uz> (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

ta'lim shaklida qayd etilgan o'quvchilar sonining tegishli guruhdagi jami o'quvchilar soniga nisbati sifatida hisoblandi.

Natijalar mutlaq son, foiz ulushi va milliy reyting 16-indikatori bo'yicha shakllangan qiyosiy ko'rsatkichlar asosida baholandi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda quyidagi tahlil usullaridan foydalanildi:

- statistik guruhlash va umumlashtirish;
- mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash;
- texnikumlar va ularning guruhlari bo'yicha qiyosiy tahlil;
- hududiy, bosqichlar, kasb va mutaxassisliklar kesimida taqsimotni baholash;
- maqsadli ko'rsatkichlarga nisbatan mavjud farqni aniqlash;
- belgilangan shartlar saqlangan holda istiqbolli ssenariy hisob-kitoblarini amalga oshirish.

Tahlil natijalari **2026-yil 30-maydagi holatni** ifodalaydi. Prof-emis.edu.uz axborot tizimidagi ma'lumotlar keyinchalik yangilanishi mumkinligi sababli mazkur sanadan keyin kiritilgan o'zgarishlar sharh natijalarida aks etmagan.

II. NORMATIV-HUQUQIY VA METODOLOGIK ASOSLAR

2.1. Dual ta'limning mazmuni va asosiy xususiyatlari

Dual ta'lim nazariy bilimlarni texnikumda, amaliy ko'nikmalarni esa ish beruvchining ishlab chiqarish muhitida o'zlashtirishga asoslangan kasbiy ta'lim shakli hisoblanadi. Unda ta'lim jarayoni texnikum va ish beruvchi o'rtasida kelishilgan dastur asosida tashkil etilib, o'quvchining nazariy tayyorgarligi amalda bajariladigan mehnat vazifalari bilan uzviy bog'lanadi.

Dual ta'limni qisqa muddatli amaliyot yoki ishlab chiqarish ekskursiyasi bilan tenglashtirish to'g'ri emas. **Uning asosiy xususiyati ta'lim jarayonining ikki o'zaro bog'langan muhitda muntazam va rejali ravishda amalga oshirilishida** namoyon bo'ladi. Bunda o'quv rejasi va ishlab chiqarishdagi amaliy tayyorgarlik mazmuni o'zaro muvofiqlashtirilishi, texnikum va ish beruvchining vazifalari aniq belgilanishi hamda erishilgan natijalar yagona mezonlar asosida baholanishi zarur.

Xalqaro mehnat tashkilotining sifatli shogirdlik dasturlariga oid 208-son tavsiyasida bunday ta'limning asosiy shartlari sifatida yozma kelishuv, ish joyida va ta'lim tashkilotida o'qitishning uyg'unligi, malakali rahbarlik, xavfsiz mehnat sharoitlari, ijtimoiy himoya hamda o'zlashtirilgan ko'nikmalarni rasman tan olish belgilangan.⁴ Mazkur yondashuv dual ta'lim qamrovini kengaytirish bilan birga, uning mazmuni va tashkil etilish sifatini ham ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Dual ta'limning samaradorligi texnikum, ish beruvchi va o'quvchi o'rtasidagi vazifalarning aniq taqsimlanishiga bog'liq. Texnikum nazariy tayyorgarlik va umumkasbiy ko'nikmalarni shakllantiradi, ish beruvchi amaliy ta'lim uchun ish o'rni, uskuna, mutaxassis va xavfsiz sharoitlarni ta'minlaydi. O'quvchi esa ta'lim dasturining nazariy va amaliy qismlarini belgilangan talablar asosida o'zlashtiradi.

Shu sababli dual ta'lim natijadorligini faqat ushbu shaklda tahsil olayotgan o'quvchilar soni yoki ulushi bilan baholash yetarli emas. Qamrov ko'rsatkichlari amaliy ta'limning davomiyligi va mazmuni, ish beruvchilar ishtiroki, ustozlarning malakasi, mehnat muhofazasi, baholash tartibi va bitiruvchilarning bandlik natijalari bilan birgalikda talqin qilinishi lozim.

⁴ International Labour Organization. *R208 - Quality Apprenticeships Recommendation, 2023 (No. 208)*. URL: https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:4347381:NO (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

2.2. Dual ta'limning milliy normativ-huquqiy asoslari

O'zbekistonda dual ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilgan. Amaldagi hujjatlarda dual ta'limni tashkil etish tartibi, ta'lim tashkiloti va ish beruvchining vazifalari, o'quvchilarni qabul qilish mexanizmlari, ta'lim jarayonini moliyalashtirish hamda istiqboldagi maqsadli ko'rsatkichlar belgilab berilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi «Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida»gi 163-son qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. Mazkur qarorga muvofiq, 2021/2022 o'quv yilidan professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish yo'lga qo'yilgan. Nizomda dual ta'lim dasturi, ish joyi, ustoz va shartnoma tushunchalari, shuningdek, ta'lim tashkiloti, ish beruvchi hamda o'quvchining huquq va majburiyatlari belgilangan.⁵

Mazkur tartibga ko'ra, o'quvchilar haftaning kamida ikki kunida ta'lim tashkilotidagi o'quv jarayonida ishtirok etadi, qolgan ish kunlarida esa tegishli tashkilotda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyatini olib boradi. Ta'lim tashkiloti va ish beruvchi o'zaro kelishilgan o'quv rejasi hamda o'quv jarayoni grafigini tasdiqlashi lozim. **Demak, milliy qonunchilikda dual ta'lim nazariy va amaliy tayyorgarlikning rejali almashinuviga, rasmiy shartnomaga hamda tomonlarning aniq belgilangan mas'uliyatiga asoslanadi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni bilan kasbiy ta'lim tashkilotlarini yagona texnikumlar tarmog'iga birlashtirish, ularning akademik mustaqilligini kengaytirish, ta'lim dasturlarini mehnat bozori talablariga muvofiqlashtirish va ish beruvchilar ishtirokini kuchaytirish vazifalari belgilangan.⁶

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi «Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida»gi 163-son qarori.

URL: <https://lex.uz/docs/5346217> (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 oktyabrdagi «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni.

URL: <https://lex.uz/uz/docs/7166588#7166813> (murojaat qilingan sana: 27.08.2026).

Mazkur yondashuv dual ta'limni alohida tashabbus sifatida emas, balki kasbiy ta'limni mehnat bozori bilan bog'lovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida rivojlantirish uchun tashkiliy zamin yaratgan.

Keyingi bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PF-190-son Farmoni hamda shu sanadagi «Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-316-son qarori qabul qilingan. PQ-316-son qarorda **2030-yilgacha kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim ulushini 40 foizga yetkazish** asosiy maqsadli ko'rsatkichlardan biri sifatida belgilangan.⁷

Mazkur qarorda dual ta'lim qamrovini kengaytirishni rag'batlantiruvchi qo'shimcha mexanizmlar ham nazarda tutilgan.

Xususan, 2026/2027 o'quv yilidan dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilarga maxsus platforma orqali har oylik stipendiya to'lash va ularning dual ta'limda tahsil olgan davrini umumiy mehnat stajiga kiritish belgilangan.

Ushbu choralar o'quvchining ta'lim va mehnat jarayonidagi huquqiy maqomini mustahkamlash hamda dual ta'limning jozibadorligini oshirishga qaratilgan.

Shunday qilib, amaldagi normativ-huquqiy baza dual ta'limni tashkil etish bilan bir qatorda uning qamrovi va sifatini bosqichma-bosqich oshirishni nazarda tutadi. **2030-yilgacha dual ta'lim ulushini 40 foizga yetkazish** belgilangan asosiy maqsadli ko'rsatkich hisoblanadi.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 23 oktyabrdagi «Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-316-son qarori.
URL: <https://lex.uz/docs/7793420#7797156> (murojaat qilingan sana: 27.08.2026).

2.3. Dual ta'lim qamrovini baholash indikatori

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2026-yil 18-martdagi 1-son buyrug'i bilan O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan va Adliya vazirligida 2026-yil 15-aprelda 3816-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Mazkur Nizomda kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini shakllantirish uchun 19 ta indikator belgilangan. Uning 16-indikatori **«Kasbiy ta'lim tashkilotida dual ta'limning ulushi»** deb nomlangan.⁸

Mazkur indikator texnikumda dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilar sonining jami o'quvchilar kontingentiga nisbatini ifodalaydi. Indikatorning asosiy vazifasi turli miqyosdagi texnikumlarni dual ta'lim bilan qamrab olish darajasi bo'yicha qiyoslashdan iborat.

Shu sababli o'quvchilar soni katta va kichik bo'lgan texnikumlar faqat dual ta'limdagi o'quvchilarning mutlaq soni asosida emas, balki ularning umumiy kontingentdagi ulushi bo'yicha baholanadi.

Indikator uchun milliy reytingda **eng yuqori 8 ball** belgilangan. Eng yuqori natijaga ega texnikum mazkur maksimal ballni oladi, qolgan texnikumlarning ballari esa yetakchi natijaga nisbatan proporsional normallashtirish asosida hisoblanadi. Indikator qiymati va reyting ballini hisoblash formulalari keyingi bo'limlarda alohida keltiriladi.

Natijalarni talqin qilishda indikator qiymati, milliy reyting bali va dual ta'limdagi o'quvchilarning mutlaq sonini o'zaro farqlash zarur.

Masalan, umumiy kontingenti kichik bo'lgan texnikum dual ta'limdagi o'quvchilar ulushi yuqoriligi sababli yuqori indikator va milliy reyting baliga ega bo'lishi mumkin.

Ayni paytda o'quvchilar soni katta bo'lgan boshqa texnikum dual ta'limga ko'proq o'quvchini jalb qilgan bo'lsa-da, ularning umumiy kontingentdagi ulushi pastligi sababli reytingda quyiroq natija qayd etishi mumkin.

Mazkur indikator ish beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalarning amalda bajarilishi, ish o'rinlari va ustozlarning talablarga muvofiqligi, mehnat

⁸ O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2026 yil 15 aprelda 3816-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
URL: <https://lex.uz/docs/-8139719#-8149928> (murojaat qilingan sana: 27.08.2026).

xavfsizligi, o'quvchilarning dasturni yakunlashi yoki bitiruvchilarning bandlik natijalarini aks ettirmaydi.

Shu sababli indikator natijalari dual ta'lim sifatining yakuniy bahosi sifatida emas, balki qamrov darajasini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkich sifatida talqin qilinishi lozim.

2.4. Texnikumlarni tahliliy guruhlarga ajratish mezonlari

Texnikumlar faoliyatini qiyosiy baholashda ularning mulkchilik shakli, bitiruvchilar mavjudligi hamda alohida akademik, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlarga egaligi hisobga olindi.

Turli sharoitlarda faoliyat yuritayotgan texnikumlarni yagona guruh doirasida to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash natijalarning xolis talqin qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli tahlilga kiritilgan texnikumlar **4 ta guruhga** ajratildi.

1-guruhni asosiy milliy reytingda ishtirok etuvchi 556 ta davlat texnikumi tashkil etadi. Ushbu texnikumlarda hisobot davri bo'yicha bitiruvchilar mavjud bo'lib, ular belgilangan indikatorlar asosida o'zaro qiyoslanadi. Milliy reyting natijalariga ko'ra eng yuqori **50 ta o'rinni egallagan texnikumlar** rag'batlantiriladi.

2-guruhga xalqaro ta'lim dasturlari joriy etilgan hamda ilg'or kasbiy mahorat texnikumlaridan iborat 28 ta davlat texnikumi kiritildi. Ushbu texnikumlar uchun qo'shimcha akademik mustaqillik, tashkiliy imkoniyatlar va ustuvor moliyalashtirish mexanizmlari belgilanganligi sababli ularning natijalari asosiy reytingdan alohida shakllantiriladi. Ular asosiy reytingning eng yuqori 50 taligiga kiritilmaydi va shu reyting doirasida rag'batlantirilmaydi.⁹

3-guruhni hisobot davrida bitiruvchilari mavjud bo'lmagan 44 ta davlat texnikumi tashkil etadi. Mazkur texnikumlar yakuniy milliy reytingda ishtirok etmaydi. Biroq ularda tahsil olayotgan o'quvchilar umumiy qamrov ko'rsatkichlarini hisoblashda inobatga olindi.

4-guruh 51 ta nodavlat texnikum hisoblanadi. Ular milliy reytingda ishtirok etmasa-da, ma'lumotlari dual ta'lim qamrovining mulkchilik shakllari

⁹ O'rta maxsus va kasbiy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingini yuritish va kasbiy ta'lim tashkilotlarini rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 oktyabrdagi PF-158-son Farmoni va 2025 yil 23 oktyabrdagi PQ-316-son qarori.
URL: <https://lex.uz/docs/-8139719#-8148630>; <https://lex.uz/uz/docs/7166588#7167064>;
<https://lex.uz/docs/7793420#7797294> (murojaat qilingan sana: 27.08.2026).

bo'yicha taqsimotini baholash va 2030-yilgi umumrespublika maqsadiga erishish imkoniyatlarini aniqlash uchun tahlil qilindi.

Shu tariqa, tahlil qamrovidagi **679 ta** texnikumning **556 tasi milliy reyting ishtirokchisi, 28 tasi alohida reyting yuritiladigan maxsus davlat texnikumlari, 44 tasi bitiruvchilari mavjud bo'lmagan davlat texnikumi va 51 tasi nodavlat texnikum** hisoblanadi.

Mazkur guruhlash texnikumlarni sifat darajasi bo'yicha oldindan tasniflamaydi; u faqat ularning huquqiy maqomi va faoliyat sharoitlarini hisobga olgan holda natijalarni qiyosiy talqin qilishga xizmat qiladi.

2.5. Dual ta'lim qamrovi indikatorini hisoblash metodikasi

Dual ta'lim qamrovi indikatorini har bir texnikumda dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilarning jami o'quvchilar kontingentidagi ulushini ifodalaydi. Indikator quyidagi formula asosida hisoblanadi.

Indikator ko'rsatkichini hisoblash formulasi:

$$K = \frac{O'_1}{O'};$$

Bunda

K – texnikumning indikator ko'rsatkichi,

O'₁ – dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilar soni,

O' – o'quvchilarning umumiy soni.

Formula suratidagi qiymat texnikumda dual ta'limga qamrab olingan o'quvchilar sonini, maxrajdagi qiymat esa ushbu texnikumdagi umumiy o'quvchilar kontingentini ifodalaydi.

2.6. Indikator bo'yicha reyting balini hisoblash tartibi

Dual ta'lim qamrovi bo'yicha hisoblangan indikator qiymati milliy reytingda to'g'ridan-to'g'ri ball sifatida qabul qilinmaydi. Texnikumning reyting bali tegishli reyting guruhida qayd etilgan eng yuqori natijaga nisbatan proporsional normallashtirish asosida hisoblanadi.

$$I_b = B_m \frac{K_t}{K_m}$$

Bunda:

I_b – indikator bo'yicha baholanayotgan texnikumga berilgan reyting bali;

B_m – indikator uchun belgilangan eng yuqori ball;

K_t – baholanayotgan texnikumning dual ta'lim qamrovi indikator;

K_m – tegishli reyting guruhida eng yuqori natija qayd etgan texnikumning indikator qiymati.

Dual ta'lim qamrovi indikator uchun eng yuqori **8 ball** belgilangan. Shu sababli mazkur indikator bo'yicha reyting bali quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$Ball = \frac{8 \times \text{texnikum ko'rsatkichi}}{\text{eng yuqori ko'rsatkich}}$$

Tegishli reyting guruhida eng yuqori indikator qiymatiga ega texnikum **8 ball** oladi. Qolgan texnikumlarning ballari ularning natijasi yetakchi texnikum ko'rsatkichining qanday ulushini tashkil etishiga qarab proporsional ravishda aniqlanadi. Indikator qiymati nolga teng bo'lgan texnikumga mazkur indikator bo'yicha nol ball beriladi.

Asosiy reytingda ishtirok etuvchi davlat texnikumlari va alohida baholanadigan maxsus texnikumlar uchun eng yuqori indikator qiymati tegishli guruh doirasida alohida aniqlanadi. Shu bois **turli reyting guruhlarida ballarni to'g'ridan-to'g'ri qiyoslash metodologik jihatdan to'g'ri emas**.

Nodavlat hamda hisobot davrida bitiruvchilari mavjud bo'lmagan texnikumlarning dual ta'lim qamrovi tahliliy maqsadlarda hisoblanadi. Biroq ushbu texnikumlar mazkur natijalar asosida milliy reytingda baholanmaydi.

Dual ta'lim qamrovi bo'yicha olingan ball texnikumning milliy reytingdagi o'rnini mustaqil ravishda belgilamaydi. Milliy reyting tartibda nazarda tutilgan barcha indikatorlar bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi asosida shakllantiriladi.

Mazkur indikator bo'yicha ball texnikumning umumiy reyting natijasini tashkil etuvchi tarkibiy qismlardan biri hisoblanadi.

Hisob-kitoblarda indikatorlarning yaxlitlanmagan qiymatlaridan foydalanish, jadvallar va tahliliy matnda esa natijalarni belgilangan aniqlik darajasida taqdim etish lozim.

Bu oraliq yaxlitlash tufayli texnikumlarning ballari yoki reytingdagi o'rinlari asossiz o'zgarishining oldini oladi.

2.7. Ma'lumotlarni talqin qilish shartlari va tahlil doirasi

Tahlil natijalarini talqin qilishda ma'lumotlarning shakllanish manbasi, qamrov davri va indikatorning mazmuniy chegaralarini hisobga olish zarur.

Mazkur sharh Prof-emis.edu.uz axborot tizimida **2026-yil 30-may holatiga** shakllangan ma'lumotlarga asoslangan.

Axborot tizimidagi ma'lumotlarning to'liqligi va aniqligi ularni kiritgan mas'ul tashkilotlar tomonidan ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'g'ri taqdim etishga bog'liq.

Mazkur tahlil doirasida har bir o'quvchining dual ta'lim shartnomasi, birlashtirilgan ish joyi, ustozlari va amaldagi ta'lim jarayoni alohida hujjatlar asosida tekshirilmagan. Shu sababli natijalar Prof-emis.edu.uz axborot tizimida dual ta'lim shaklida qayd etilgan o'quvchilar sonini ifodalaydi.

Dual ta'lim o'quvchilari qayd etilmagan texnikumlarda mazkur ta'lim shakli amalda umuman tashkil etilmagani yoki tegishli ma'lumotlar axborot tizimiga kiritilmagani qo'shimcha o'rganishsiz qat'iy belgilanmaydi.

Ayniqsa, umumiy o'quvchilar kontingenti mavjud bo'lgan, biroq dual ta'lim bo'yicha nol natija qayd etgan texnikumlar kesimida ma'lumotlarni alohida verifikatsiya qilish zarur.

Hududlar, texnikumlar guruhlari, bosqichlar, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha aniqlangan farqlar ushbu omillar dual ta'lim natijalarining bevosita sababi ekanini anglatmaydi.

Mavjud ma'lumotlar ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi, biroq ularning sabablarini to'liq baholash uchun ish beruvchilar soni, mehnat bozori ehtiyoji, amaliyot bazalari, shartnomalar, ustozlar va moddiy-texnika sharoitlariga oid qo'shimcha ma'lumotlar talab etiladi.

Foiz ko'rsatkichlari tahlil qilinayotgan guruhdagi dual ta'lim o'quvchilari jamini ushbu guruhdagi o'quvchilar umumiy soniga nisbatan hisoblash orqali aniqlanadi.

Guruhlar bo'yicha alohida hisoblangan natijalarni butun songa yaxlitlash ayrim yig'indilarda bir nafarlik texnik farqni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holat ma'lumotlar o'rtasidagi ziddiyat emas, balki mustaqil ravishda amalga oshirilgan yaxlitlash natijasi sifatida izohlanishi lozim.

Mazkur shartlar tahlil natijalarining ahamiyatini kamaytirmaydi, balki ulardan foydalanish doirasini aniq belgilaydi.

Natijalar Prof-emis.edu.uz tizimida qayd etilgan ma'lumotlar doirasida dual ta'lim qamrovining joriy holatini tavsiflash, asosiy farqlarni aniqlash hamda qo'shimcha o'rganilishi zarur bo'lgan texnikumlar, kasb va mutaxassisliklarni belgilash uchun tahliliy asos bo'lib xizmat qiladi.

III. RESPUBLIKA BO'YICHA DUAL TA'LIM QAMROVI VA MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

3.1. Dual ta'lim qamrovining umumiy holati

2026-yil 30-may holatiga ko'ra, tahlil qamroviga kiritilgan **679 ta texnikumda 442 227 nafar o'quvchi** tahsil olmoqda.

Shundan **60 654 nafari dual ta'lim shaklida** o'qishni davom ettirmoqda. Respublika bo'yicha dual ta'lim qamrovi **13,7 foizni** tashkil etgan.

Mazkur ko'rsatkich har **100 nafar** texnikum o'quvchisidan qariyb **14 nafari** dual ta'limga jalb qilinganini anglatadi.

Qolgan **381 573 nafar o'quvchi yoki umumiy kontingentning 86,3 foizi** boshqa ta'lim shakllarida tahsil olmoqda.



1-rasm. Respublika texnikumlarida dual ta'lim qamrovining umumiy holati, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tahlil natijalari dual ta'lim texnikumlar faoliyatiga muayyan darajada joriy etilganini, biroq **hozircha o'quvchilar umumiy kontingentining nisbatan kam qismini qamrab olayotganini** ko'rsatadi.

Shu sababli dual ta'lim qamrovining umumiy o'sish imkoniyatlarini baholash bilan bir qatorda, uning texnikumlar, hududlar va kasbiy yo'nalishlar bo'yicha taqsimotini ham alohida tahlil qilish zarur.


Amaldagi qamrov darajasining **20 foizlik** tahliliy oraliq mezon hamda **2030-yilgacha erishilishi belgilangan 40 foizlik maqsadli ko'rsatkichga** nisbatan holati baholanadi.

3.2. Amaldagi qamrovning maqsadli ko'rsatkichlarga nisbatan holati

Respublika bo'yicha dual ta'lim qamrovining amaldagi darajasini baholashda mazkur ko'rsatkichni tahliliy oraliq mezon va 2030-yil uchun belgilangan rasmiy maqsad bilan qiyoslash muhim ahamiyatga ega.

Jami o'quvchilar soni **442 227 nafar** darajasida o'zgarmaydi degan shartda, **20 foizlik** tahliliy oraliq mezonga **88 446 nafar** dual ta'lim o'quvchisi mos keladi. Bu joriy ko'rsatkichdan **27 792 nafarga** ko'p. Mazkur miqdor majburiy reja emas, balki shartli hisob-kitob natijasidir.

2030-yilgacha dual ta'lim qamrovini **40 foizga yetkazish bo'yicha rasmiy maqsad** saqlanib qolgan taqdirda, dual ta'limdagi o'quvchilar soni **176 891 nafarni** tashkil etishi kerak. Amaldagi holat bilan maqsadli ko'rsatkich o'rtasidagi farq **116 237 nafar o'quvchiga** teng.



2-rasm. Dual ta'limdagi o'quvchilarning amaldagi soni hamda 20 va 40 foizlik qamrov uchun zarur miqdori

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son qarorida belgilangan maqsadli ko'rsatkich asosida muallif hisob-kitoblari.

Qiyosiy hisob-kitoblar amaldagi qamrov bilan **20 foizlik** tahliliy mezon o'rtasida **6,3 foiz punkt**, 2030-yilgi rasmiy maqsad bilan esa **26,3 foiz punkt** farq mavjudligini ko'rsatadi. **40 foizlik** qamrovga erishish uchun dual ta'limdagi o'quvchilar soni amaldagi darajaga nisbatan qariyb **2,9 baravarga** ko'payishi talab etiladi.

Mazkur hisob-kitoblar jami o'quvchilar kontingenti **442 227 nafar** darajasida o'zgarmasligi sharti asosida amalga oshirilgan.

Shu sababli ular prognoz emas, balki **maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun zarur bo'lgan miqdoriy ko'lamni ifodalovchi tahliliy ssenariy** sifatida talqin qilinishi lozim.

3.3. Dual ta'limda o'quvchilar qayd etilmagan texnikumlardagi imkoniyatlar

Tahlil qamroviga kiritilgan **679 ta** texnikumning **485 tasida kamida bir nafar dual ta'lim o'quvchisi** mavjud. Qolgan **194 ta texnikumda dual ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilar qayd etilmagan**. Ularning **191 tasida** o'quvchilar kontingenti mavjud bo'lib, **3 ta** texnikumda (Toshkent viloyati va Toshkent shahar ilg'or kasbiy mahorat texnikumlari, Tibbiyot texnikumi Ochiloff) o'quvchilar mavjud emas.

Dual ta'lim o'quvchilari mavjud bo'lmagan **191 ta** texnikumda **jami 124 889 nafar o'quvchi** tahsil olmoqda.

Mazkur ko'rsatkich ushbu texnikumlarda dual ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish respublika bo'yicha qamrovni oshirishning muhim ichki imkoniyatlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Agar mazkur 191 ta texnikumda tahsil olayotgan o'quvchilarning **10 foizi dual ta'limga jalb qilinsa, qo'shimcha 12 489 nafar o'quvchini** qamrab olish imkoni yuzaga keladi.

Bu respublika bo'yicha 20 foizlik tahliliy oraliq mezonga erishish uchun zarur bo'lgan **27 792 nafarlik** qo'shimcha ehtiyojning **44,9 foizini qoplaydi**.

Ko'rsatkich nomi	Qiymati
Tahlil qamroviga kiritilgan texnikumlar	679 ta
Dual ta'lim o'quvchilari mavjud texnikumlar	485 ta
Dual ta'lim o'quvchilari mavjud bo'lmagan texnikumlar	194 ta
Shundan o'quvchilar kontingenti mavjud texnikumlar	191 ta
O'quvchilar kontingenti mavjud bo'lmagan texnikumlar	3 ta
Mazkur texnikumlardagi jami o'quvchilar	124 889 nafar
O'quvchilarning 10 foizini dual ta'limga jalb qilish imkoniyati	12 489 nafar
20 foizlik tahliliy mezonigacha bo'lgan farqning qoplanishi	44,9 %

1-jadval. Dual ta'limda o'quvchilar qayd etilmagan texnikumlarda qamrovni kengaytirish imkoniyatlari

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Ushbu hisob-kitob dual ta'lim mavjud bo'lmagan barcha texnikumlar uchun bir xil qamrovni belgilamaydi, balki mavjud o'quvchilar kontingenti asosida erishish mumkin bo'lgan miqdoriy imkoniyatni baholaydi.

Amaldagi imkoniyat esa texnikum yo'nalishi, hududdagi ish beruvchilar va ularning o'quvchilarni qabul qilish salohiyati hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish sharoitlariga bog'liq.

Shu bois qamrovni kengaytirish choralari o'quvchilar kontingenti mavjud bo'lgan, biroq dual ta'limda o'quvchilar qayd etilmagan texnikumlarning **kasbiy yo'nalishlari va ish beruvchilar bilan hamkorlik imkoniyatlarini alohida baholashdan** boshlanishi lozim.

3.4. Dual ta'lim qamrovini oshirish bo'yicha tahliliy ssenariylar

2030-yilgacha dual ta'lim qamrovini **40 foizga** yetkazish vazifasiga erishish jarayonini baholash uchun qamrovning **20, 25, 30 va 35** foizlik oraliq darajalari bo'yicha tahliliy hisob-kitoblar amalga oshirildi. Mazkur darajalar normativ hujjatlarda belgilangan yillik maqsadlar bo'lib, 40 foizlik yakuniy maqsadga erishish ko'lamini bosqichma-bosqich baholashga xizmat qiluvchi **oraliq mezonlar** hisoblanadi.

Jami o'quvchilar kontingenti **442 227 nafar** darajasida saqlanishi shartida har bir qamrov darajasi uchun zarur bo'lgan dual ta'lim o'quvchilari soni 2-jadvalda keltirilgan.

Yil	Ulushi	Ssenariy bo'yicha dual ta'limdagi o'quvchilar soni	Joriy ko'rsatkichdan farqi
2026	20 %	88 446 nafar	27 792 nafar
2027	25 %	110 557 nafar	49 903 nafar
2028	30 %	132 668 nafar	72 014 nafar
2029	35 %	154 780 nafar	94 126 nafar
2030	40 %	176 891 nafar	116 237 nafar

2-jadval. 2026-2030-yillarda maqsadli ko'rsatkichlarga yetish imkoniyatini baholash

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hisob-kitoblarga ko'ra, dual ta'lim qamrovini har **5 foizga oshirish qariyb 22,1 ming nafar qo'shimcha o'quvchini** mazkur ta'lim shakliga jalb qilishni talab etadi. Shu jihatdan, **20 foizlik** qamrov qisqa muddatli tahliliy mezon sifatida qabul qilinsa, unga erishish uchun qo'shimcha **27 792 nafar** o'quvchini qamrab olish zarur.

Qamrovni **25 foizga** yetkazish **49 903 nafar**, **30 foizga** yetkazish **72 014 nafar**, **35 foizga** yetkazish esa **94 126 nafar** qo'shimcha o'quvchini dual ta'limga jalb qilishni taqozo etadi.

40 foizlik rasmiy maqsadga erishish uchun amaldagi ko'rsatkichga nisbatan qo'shimcha 116 237 nafar o'quvchi dual ta'lim bilan qamrab olinishi lozim.

Ushbu ssenariylar dual ta'lim qamrovini kengaytirish jarayonining miqdoriy ko'lamini ko'rsatadi.

Biroq o'quvchilar umumiy soni, texnikumlar tarmog'i va qabul ko'rsatkichlari yillar davomida o'zgaradi.

Xususan, 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovini **29 foizdan 50 foizga** oshirish kasbiy ta'limga kirib keladigan o'quvchilar sonini ko'paytiradi. Shu sababli dual ta'limning **40 foizlik** ulushiga erishish uchun zarur o'quvchilar soni ham amaldagi kontingent asosida hisoblangan miqdordan yuqori bo'lishi mumkin.

Bunda 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovi va jami o'quvchilar tarkibidagi dual ta'lim ulushi turli ko'rsatkichlar hisoblanadi. Birinchi ko'rsatkich bitiruvchilarning kasbiy ta'limga jalb etilishini, ikkinchisi esa tegishli o'quvchilar kontingentining ta'lim shakllari bo'yicha taqsimlanishini ifodalaydi. Shuning uchun **29 foizdan 50 foizga** o'sish nisbatini jami kontingentga to'g'ridan-to'g'ri qo'llash orqali dual ta'limga bo'lgan ehtiyojni aniqlash to'g'ri bo'lmaydi.

Texnikumlarda qamrovni **1 mln nafarga yetkazish** maqsadi doirasidagi kontingentga **40 foizlik dual ta'lim ulushi** tatbiq etilgan ssenariyda dual ta'limda **400 ming nafar o'quvchi** tahsil olishi kerak bo'ladi. Bu hisobotdagi **60 654 nafar** o'quvchiga nisbatan **339 346 nafarga ko'p** bo'lib, amaldagi qamrovni qariyb **6,6 baravarga** oshirishni talab etadi.

Kontingentning o'sishi bilan dual ta'limga bo'lgan ehtiyoj ham mutanosib oshadi. Jumladan, jami kontingent **600 ming nafar** bo'lganda **40 foizlik** ulush uchun **240 ming nafar**, **800 ming nafar** bo'lganda **320 ming nafar**, **1 mln nafar** bo'lganda esa **400 ming nafar** o'quvchini dual ta'lim bilan qamrab olish zarur. Bu amaldagi darajaga nisbatan tegishlicha **179 346 nafar**, **259 346 nafar** va **339 346 nafar** qo'shimcha qamrovni anglatadi.

Ushbu miqdorlar bir yilda qabul qilinishi lozim bo'lgan o'quvchilar sonini bildirmaydi. Yillik qabul parametrlarini belgilashda dual ta'limda o'qishni davom ettirayotganlar, bitiruvchilar, ta'limni tark etayotganlar va boshqa ta'lim shakliga o'tayotganlar soni hisobga olinishi kerak. Shundan kelib chiqib, har bir yil uchun jami kontingent, dual ta'limdagi o'quvchilar soni va yangi qabul hajmi o'zaro bog'langan holda rejalashtirilishi lozim.

Qamrovning bunday kengayishi korxonalarda amaliy ta'lim o'rinlari, malakali ustozlar va zarur jihozlarga bo'lgan talabni ham oshiradi. Shu bois qo'shimcha qabul parametrlari hududlar va kasblar kesimida ish beruvchilarning tasdiqlangan imkoniyatlariga asoslanishi zarur.

Har bir korxona bo'yicha bir vaqtning o'zida qabul qilinadigan o'quvchilar soni, amaliy mashg'ulotlar jadvali, ustozlar bilan ta'minlanganlik va ta'lim sharoitlari aniqlanishi kerak. Bir amaliy o'rindan navbatma-navbat foydalanish imkoniyati hisobga olinib, korxonalardagi zarur o'rinlar soni o'quvchilar soni bilan avtomatik tenglashtirilmasligi lozim.

Shunday qilib, dual ta'lim qamrovini kengaytirish rejasida o'quvchilar soni, yillik qabul va korxonalarning amaliy tayyorgarlik imkoniyatlari birgalikda belgilanishi kerak. Bu maqsadli ulushga erishish bilan birga, jalb etilgan o'quvchilarning sifatli kasbiy tayyorgarligini ta'minlash imkonini beradi.

IV. DUAL TA'LIMGA QABUL VA BOSQICHLAR KESIMIDAGI QAMROV

4.1. 2025/2026 o'quv yilida dual ta'limga qabul holati

2025/2026 o'quv yilida respublika texnikumlariga jami **249 130 nafar** o'quvchi qabul qilingan. Shundan dual ta'lim shakliga amalda qabul qilingan o'quvchilar ulushi **16,5 foizni** tashkil etgan.¹⁰

Qabuldagi dual ta'lim ulushi respublika bo'yicha amaldagi umumiy qamrov darajasidan **2,8 foiz punkt** yuqori. Ya'ni yangi qabul jarayonida dual ta'limning salmog'i jami o'quvchilar kontingentidagi **13,7 foizlik** ko'rsatkichga nisbatan yuqoriroq shakllangan.

Bu dual ta'lim qamrovini kengaytirishda **yangi qabul parametrlari muhim amaliy vosita** bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, qabuldagi **16,5 foizlik** ko'rsatkich 2030-yil uchun belgilangan **40 foizlik** maqsaddan **23,5 foiz punkt past**.

Demak, qabuldagi mavjud ulush o'zgarishsiz saqlanib qolsa, dual ta'lim qamrovini belgilangan darajaga yetkazish uchun yetarli o'sish sur'ati ta'minlanmaydi.

Yangi qabulda dual ta'lim ulushini oshirish faqat qabul o'rinlarini miqdoriy ko'paytirish bilan cheklanmasligi lozim. Qabul parametrlari ish beruvchilar bilan tuzilgan amaldagi shartnomalar, mavjud ish va amaliyot o'rinlari, malakali ustozlar soni, texnikumlarning kasbiy yo'nalishlari hamda hududiy mehnat bozori ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirilishi zarur.

4.2. Yangi qabulda dual ta'lim ulushini oshirishning shartli ssenariysi

Dual ta'lim qamrovini 2030-yilgacha 40 foizga yetkazish faqat amaldagi kontingentni qayta taqsimlash hisobiga ta'minlanmaydi. Mazkur jarayonda har bir yangi qabul davrida dual ta'lim uchun ajratiladigan o'rinlar ulushini izchil oshirib borish muhim ahamiyatga ega.

Umumiy qabul hajmi 249 ming nafar atrofida saqlanishi hamda o'quvchilar kontingentida keskin o'zgarish kuzatilmasligi sharti asosida yangi qabulda dual ta'lim ulushini oshirishning 2026–2030-yillarga mo'ljallangan tahliliy ssenariysi ishlab chiqildi.

¹⁰ Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining "Kasbiy ta'limda qabul parametrlari va ularning samaradorligi tahlili" URL: <https://nqaae.uz/uz/analysis>

Yil	Jami kontingentdagi tahliliy oraliq mezon	Yangi qabulda dual ta'lim ulushi	Ssenariy bo'yicha dual ta'limga qabul qilinadigan o'quvchilar
2026	20 %	25,0 %	62,3 ming nafar
2027	25 %	29,0 %	72,2 ming nafar
2028	30 %	34,0 %	84,7 ming nafar
2029	35 %	39,0 %	97,2 ming nafar
2030	40 %	44,0 %	109,6 ming nafar

3-jadval. Yangi qabulda dual ta'lim ulushini oshirishning shartli ssenariysi

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari va 2030-yil uchun belgilangan maqsadli ko'rsatkich asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadvalda jami yillik qabul hajmi **249 ming nafar** atrofida saqlanadi degan shart asosida yangi qabuldagi dual ta'lim ulushining **25 foizdan 44 foizgacha** oshishi misol tariqasida hisoblangan. Bunda dual ta'limga qabul qilinadigan o'quvchilar soni **62,3 ming nafardan 109,6 ming nafargacha** o'zgaradi.

Jadvaldagi ulushlar normativ maqsad, prognoz yoki tasdiqlangan qabul parametri emas. Yangi qabuldagi ulushning **44 foizga** yetishi jami kontingent bo'yicha 40 foizlik qamrovga erishilishini o'z-o'zidan kafolatlamaydi. Buni aniqlash uchun har bir qabul guruhining ta'lim muddati, bosqichdan bosqichga o'tishi, bitirishi, o'qishni tark etishi va boshqa ta'lim shakliga o'tishini qamrab oladigan oqim modeli zarur. Shu sababli ssenariy har o'quv yili yakunida amaldagi ma'lumotlar asosida qayta hisoblanishi kerak.

Ssenariyda 2026–2030-yillarda yangi qabuldagi dual ta'lim ulushini **19 foizga**, dual ta'limga qabul qilinadigan o'quvchilar sonini esa qariyb **48 ming nafarga** oshirish nazarda tutilgan. Bu qabul parametrlarini har yili bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqish va dual ta'lim o'rinlarini ish beruvchilarning real imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishni talab etadi.


Mazkur hisob-kitoblar shartli ssenariy xususiyatiga ega. Bitiruvchilar soni, o'qishni tark etish holatlari, ta'lim shaklini o'zgartirish, qabul hajmi va texnikumlar tarmog'idagi o'zgarishlar yakuniy natijaga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli qabul ssenariysi har bir o'quv yili yakunida amaldagi ma'lumotlar asosida qayta hisoblanishi lozim.

4.3. Bosqichlar kesimida dual ta'lim qamrovi

Bosqichlar kesimidagi ma'lumotlar dual ta'lim qamrovi o'quv bosqichlari bo'yicha bir xil shakllanmaganini ko'rsatadi. Birinchi bosqichda **257 884 nafar o'quvchining 45 276 nafari** dual ta'limda tahsil olib, qamrov darajasi **17,6 foizni** tashkil etgan.

Ikkinchi bosqichda **154 715 nafar** o'quvchidan **14 858 nafari** dual ta'limga jalb qilingan. Mazkur bosqichda dual ta'lim ulushi **9,6 foizga** teng.

Uchinchi bosqichda esa **29 628 nafar** o'quvchining **520 nafari** dual ta'limda tahsil olib, qamrov darajasi **1,8 foizni** tashkil etgan.



3-rasm. Texnikumlarda bosqichlar kesimida dual ta'lim qamrovi, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tahlil natijalari birinchi bosqichdagi dual ta'lim ulushi ikkinchi bosqichga nisbatan **8 foiz**, uchinchi bosqichga nisbatan esa **15,8 foiz** yuqori ekanini ko'rsatadi. Birinchi bosqichdagi qamrov darajasi uchinchi bosqich ko'rsatkichidan qariyb **10 baravar** yuqori.

Dual ta'limdagi **60 654 nafar** o'quvchining **45 276 nafari** yoki **74,6 foizi birinchi bosqichda** tahsil olmoqda. Ikkinchi bosqich hissasiga **24,5 foiz**, uchinchi bosqich hissasiga esa **0,9 foiz** to'g'ri keladi. Bu dual ta'lim kontingentining asosiy qismi so'nggi qabullar hisobiga shakllanganini ko'rsatadi.

Bosqichlar o'rtasidagi farq dual ta'limning 2021/2022 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich joriy etilgani va keyingi qabullarda uning qamrovi kengaygani bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq mazkur ma'lumotlar muayyan o'quvchilar guruhining bir bosqichdan keyingi bosqichga o'tishini bevosita aks ettirmaydi.

Shu sababli birinchi bosqichda dual ta'limga qabul qilingan o'quvchilarning keyingi bosqichlarda dasturda saqlanishi, ish beruvchi bilan tuzilgan shartnomalarning uzluksiz amal qilishi va dual ta'limni yakunlash holatlarini **alohida kogorta kuzatuvi¹¹ asosida baholash** zarur.

¹¹ Kogorta kuzatuvi – bir xil davrda dual ta'limga qabul qilingan o'quvchilar guruhining keyingi bosqichlarga o'tishi va dual ta'limni yakunlash holatini kuzatib borish usuli.

V. TEXNIKUMLAR GURUHLARI VA MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA DUAL TA'LIM QAMROVI

5.1. Texnikumlarning tahliliy guruhlar bo'yicha tarkibi

Tahlil qamroviga kiritilgan **679 ta texnikum** mulkchilik shakli, tashkiliy maqomi va baholashda ishtirok etish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir nechta guruhga ajratildi. Mazkur guruhlash turli tashkiliy sharoitlarda faoliyat yuritayotgan texnikumlarda dual ta'lim qamrovini qiyosiy baholash imkonini beradi.

Tahlilga kiritilgan texnikumlarning **628 tasi davlat, 51 tasi esa nodavlat** ta'lim tashkilotlari hisoblanadi. Davlat texnikumlari tarkibida **600 ta** an'anaviy davlat texnikumi va **28 ta** alohida maqomdagi texnikum mavjud.

An'anaviy davlat texnikumlarining **556 tasi** asosiy baholash guruhiga kiritilgan. Qolgan **44 ta davlat texnikumida bitiruvchilar mavjud emasligi** sababli ular alohida tahliliy guruh sifatida o'rganildi. Shuningdek, **28 ta** alohida maqomdagi texnikum va **51 ta** nodavlat texnikum natijalari ham mustaqil guruhlar kesimida baholandi.

Tahlil guruhlarining tarkibi quyidagicha shakllangan:

asosiy baholash guruhidagi davlat texnikumlari, **556 ta**;

bitiruvchilari mavjud bo'lmagan davlat texnikumlari, **44 ta**;

alohida maqomdagi texnikumlar, **28 ta**;

nodavlat texnikumlar, **51 ta**.

Mazkur to'rtta guruh yig'indisi tahlil qamrovidagi **679 ta texnikumni to'liq qamrab oladi**. Bunday ajratish dual ta'lim qamrovini faqat mulkchilik shakli bo'yicha emas, balki texnikumlarning faoliyat xususiyatlari va baholashdagi maqomini hisobga olgan holda talqin qilish imkonini beradi.

Guruhlar soni o'rtasidagi farq katta bo'lgani sababli ularni faqat dual ta'limdagi o'quvchilarning umumiy soni asosida qiyoslash yetarli emas. Shu bois keyingi bo'limda har bir guruh bo'yicha jami o'quvchilar, dual ta'limdagi o'quvchilar va ularning umumiy kontingentdagi ulushi birgalikda tahlil qilinadi.

5.2. Texnikumlar guruhlari bo'yicha dual ta'lim qamrovi

Texnikumlar guruhlari kesimidagi tahlil dual ta'lim qamrovi mulkchilik shakli va tashkiliy maqomga qarab sezilarli farqlanishini ko'rsatadi.


Texnikumlar guruhi	Texnikumlar soni	Jami o'quvchilar	Dual ta'limdagi o'quvchilar	Qamrov darajasi
Jami	679 ta	442 227 nafar	60 654 nafar	13,7 %
<i>shu jumladan</i>				
An'anaviy davlat texnikumi	600 ta	390 193 nafar	56 984 nafar	14,6 %
Maxsus davlat texnikumi	28 ta	18 497 nafar	3 289 nafar	17,8 %
Nodavlat texnikumi	51 ta	33 537 nafar	381 nafar	1,1 %

4-jadval. Texnikumlar guruhlari bo'yicha dual ta'lim qamrovi, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: davlat texnikumlarining umumiy ko'rsatkichi odatdagi davlat texnikumlari va alohida maqomdagi texnikumlar natijalarini qamrab oladi.

Alohida maqomdagi **28 ta** texnikumda **18 497 nafar** o'quvchining **3 289 nafari** yoki **17,8 foizi** dual ta'limda tahsil olmoqda. Bu an'anaviy davlat texnikumlaridagi **14,6 foizlik** natijadan **3,2 foiz punkt yuqori**.



4-rasm. Texnikumlar guruhlari bo'yicha dual ta'lim qamrovi, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jami **628 ta** davlat texnikumida **408 690 nafar** o'quvchining **60 273 nafari dual ta'limga qamrab olingan**. Davlat sektoridagi umumiy qamrov darajasi **14,7 foizni** tashkil etgan. Respublikada dual ta'limda tahsil olayotgan jami **60 654 nafar** o'quvchining **99,4 foizi** davlat texnikumlari hissasiga to'g'ri keladi.

Nodavlat sektordagi **51 ta** texnikumda **33 537 nafar** o'quvchi tahsil olayotgan bo'lsa-da, ularning **381 nafari** dual ta'limga jalb qilingan. Natijada nodavlat texnikumlardagi qamrov darajasi **1,1 foizni** tashkil etgan. Davlat va nodavlat texnikumlardagi qamrov darajalari o'rtasidagi farq **13,6 foiz punktni** tashkil etadi.

Alohida maqomdagi texnikumlarning nisbatan yuqori natijasi va nodavlat sektordagi past qamrov sabablarini faqat mavjud miqdoriy ma'lumotlar asosida to'liq izohlab bo'lmaydi. Buning uchun ish beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar, amaliyot o'rinlari, ustozlar soni, kasbiy yo'nalishlar hamda dual ta'limni tashkil etish mexanizmlarini qo'shimcha o'rganish zarur.

5.3. Nodavlat texnikumlarda dual ta'lim qamrovi

Nodavlat sektorda dual ta'lim qamrovining pastligi barcha texnikumlarda bir xil natija kuzatilganini anglatmaydi. Tahlilga ko'ra, **51 ta nodavlat texnikumdan faqat 3 tasida** dual ta'lim o'quvchilari mavjud. Qolgan **48 ta nodavlat texnikumda dual ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilar** qayd etilmagan.

Texnikum nomi	Jami o'quvchilar	Dual ta'limdagi o'quvchilar	Qamrov darajasi
ALPHA PROFESSIONAL TA'LIM	528 nafar	182 nafar	34,5%
Marg'ilon ko'p tarmoqli texnikumi	31 nafar	8 nafar	25,8%
ARALBOYI MEDICINA HAM TRANSPORT TEXNIKUMI	1 583 nafar	191 nafar	12,1%
Boshqa nodavlat texnikumlar	31 395 nafar	0 nafar	0%
Jami	33 537 nafar	381 nafar	1,1 %

5-jadval. Dual ta'lim o'quvchilari mavjud bo'lgan nodavlat texnikumlar, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Nodavlat sektorda dual ta'lim o'quvchilarining mutlaq soni bo'yicha **Aralbo'yi meditsina ham transport texnikumi** yetakchi bo'lib, unda **191 nafar** o'quvchi dual ta'limda tahsil olmoqda. «ALPHA» professional ta'lim texnikumida mazkur ko'rsatkich **182 nafarni**, Marg'ilon ko'p tarmoqli texnikumida esa **8 nafarni** tashkil etgan.

Qamrov darajasi bo'yicha eng yuqori natija «ALPHA» professional ta'lim texnikumida **34,5 foiz** bilan qayd etilgan. Marg'ilon ko'p tarmoqli texnikumida dual ta'lim ulushi **25,8 foizni**, Aralbo'yi meditsina ham transport texnikumida **12,1 foizni** tashkil etgan.

Nodavlat sektordagi **51 ta** texnikumdan faqat **3 tasida** dual ta'lim o'quvchilari qayd etilgan. Jami **381 nafar** dual ta'lim o'quvchisining **373 nafari** yoki **97,9 foizi 2 ta** texnikum hissasiga to'g'ri keladi. Bu **nodavlat sektorda dual ta'lim hali keng qamrovda joriy etilmaganini** va **amaldagi natija asosan ayrim texnikumlar hisobiga shakllanayotganini** ko'rsatadi.

VI. DUAL TA'LIM QAMROVI DARAJALARI BO'YICHA TEXNIKUMLAR TAQSIMOTI

6.1. Qamrov oraliqlari bo'yicha umumiy taqsimot

Texnikumlarni dual ta'lim qamrovi darajalari bo'yicha guruhlash ushbu ta'lim shaklini joriy etish ko'lami tashkilotlar kesimida qay darajada farqlanishini baholash imkonini beradi. Shu maqsadda tahlil qamrovidagi **679 ta texnikum dual ta'lim ulushiga ko'ra yettita oraliqqa** ajratildi.

Tahlil qamrovidagi **679 ta texnikumning 485 tasida dual ta'lim shaklida o'qiyotgan o'quvchilar bor**. Bu jami texnikumlarning **71,4 foizini** tashkil etadi. Qolgan **194 ta texnikumda (28,6 foiz)** ushbu ta'lim shaklida o'qiyotgan o'quvchilar qayd etilmagan.


Ko'rsatkich oralig'i	Texnikumlar soni	Jami o'quvchi, nafar	Dual ta'limdagi o'quvchi, nafar
0%	194 ta	124 889	0
0-5%	48 ta	40 819	1 318
5-10%	93 ta	68 198	5 210
10-20%	138 ta	91 798	13 450
20-30%	96 ta	56 073	13 947
30-40%	57 ta	31 398	11 016
40-100%	53 ta	29 052	15 713
JAMI	679 ta	442 227	60 654

6-jadval. Dual ta'lim ulushi bo'yicha texnikumlar taqsimoti 2026-yil 30-may holatiga.

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Ma'lumotlarga ko'ra, eng katta guruhni dual ta'lim qamrovi mavjud bo'lmagan **194 ta texnikum** tashkil etadi. Keyingi yuqori ko'rsatkich qamrov darajasi **10-20 foiz** oralig'ida bo'lgan **138 ta texnikum** hissasiga to'g'ri keladi. Qamrov darajasi **20-30 foiz** bo'lgan guruhga **96 ta**, **5-10 foiz** bo'lgan guruhga esa **93 ta** texnikum kirgan.

Qamrovi **30-40 foiz** oralig'ida bo'lgan texnikumlar soni **57 tani** tashkil etgan. **53 ta texnikumda dual ta'lim qamrovi 40 foiz va undan yuqori darajaga yetgan**. Ayni paytda qamrovi **0 foizdan yuqori**, biroq **5 foizdan oshmagan** texnikumlar soni **48 tani** tashkil etadi.



5-rasm. Dual ta'lim qamrovi darajalari bo'yicha texnikumlar taqsimoti, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qayd etilgan taqsimot dual ta'lim aksariyat texnikumlarda joriy etilganini, biroq **qamrov ko'lami tashkilotlar kesimida sezilarli darajada farqlanishini** ko'rsatadi.

Bir tomondan, **40 foizlik** maqsadli darajaga yetgan yoki undan yuqori natija qayd etgan texnikumlar guruhi shakllangan.

Ikkinchi tomondan, dual ta'lim mavjud bo'lmagan yoki qamrovi past bo'lgan texnikumlar soni ham salmoqliligicha qolmoqda. Shu sababli keyingi qismda qamrovi **10 foizdan** past bo'lgan texnikumlardagi holat alohida tahlil qilinadi.

6.2. Qamrovi past bo'lgan texnikumlarda o'quvchilar taqsimoti

Dual ta'lim qamrovi past bo'lgan texnikumlarni baholashda ularning soni bilan bir qatorda, mazkur tashkilotlarda tahsil olayotgan o'quvchilar kontingentini ham hisobga olish zarur. Chunki o'quvchilar soni katta bo'lgan texnikumlarda dual ta'lim qamrovining cheklanganligi respublika bo'yicha umumiy ko'rsatkichga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, qamrov darajasi **0 foiz** hamda **0-5 foiz oralig'ida** bo'lgan guruhlariga **242 ta texnikum** kirgan. Bu tahlil qamrovidagi texnikumlarning **35,6 foizini** tashkil etadi. Ushbu texnikumlarda **165 708 nafar** yoki o'quvchilarning **37,5 foizi** tahsil olayotgan bo'lsa-da, dual ta'limdagi o'quvchilar soni **1 318 nafarni** tashkil etgan. Bu respublikadagi barcha dual ta'lim o'quvchilarining atigi **2,2 foiziga** teng.


Qamrovi **5–10 foiz** bo'lgan texnikumlar ham qo'shilganda, qamrovi **10 foizgacha** bo'lgan guruhlardagi texnikumlar soni **335 taga** yetadi. Ularda **233 906 nafar** o'quvchi tahsil olib, bu ularning **52,9 foizini** tashkil etadi. Ayni paytda mazkur texnikumlar hissasiga dual ta'limdagi o'quvchilarning **6 528 nafari** yoki **10,8 foizi** to'g'ri keladi.

Jamlangan qamrov guruhlari	Texnikum soni	Jami o'quvchilar	Jami o'quvchilar ulushi	Dual ta'limdagi o'quvchilar	Qamrov darajasi
0% va 0-5%	242 ta	165 708 nafar	37,5%	1 318 nafar	2,2 %
0%, 0-5% va 5-10%	335 ta	233 906 nafar	52,9%	6 528 nafar	10,8 %

7-jadval. Dual ta'lim qamrovi past bo'lgan texnikumlarning jamlanma ko'rsatkichlari, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Mazkur natijalar tahlilga kiritilgan o'quvchilarning yarmidan ko'pi dual ta'lim qamrovi **10 foizgacha bo'lgan texnikumlarda** tahsil olayotganini ko'rsatadi.



6-rasm. Qamrovi past bo'lgan texnikumlarda jami va dual ta'limdagi o'quvchilar ulushi, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qayd etilgan nomutanosiblik dual ta'lim qamrovini kengaytirish bo'yicha asosiy ichki imkoniyatlar aynan o'quvchilar kontingenti katta, biroq qamrov darajasi past bo'lgan texnikumlarda jamlanganini ko'rsatadi.

Shu sababli bunday texnikumlarda ish beruvchilar bilan hamkorlikni kengaytirish, dual ta'limga mos kasb va mutaxassisliklarni aniqlash hamda o'quvchilarni bosqichma-bosqich dual dasturlarga jalb qilish ustuvor ahamiyatga ega.

6.3. Qamrovi yuqori bo'lgan texnikumlar va dual o'quvchilar taqsimoti

Dual ta'lim qamrovi yuqori bo'lgan texnikumlar natijalarini alohida tahlil qilish mazkur ta'lim shaklini keng joriy etgan tashkilotlarning respublika ko'rsatkichlariga qo'shgan hissasini baholash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, **206 ta texnikumda dual ta'lim qamrovi 20 foiz va undan yuqori** bo'lgan. Ular tahlil qamrovidagi jami texnikumlarning **30,3 foizini** tashkil etadi. Mazkur texnikumlarda **116 523 nafar** yoki o'quvchilarning **26,3 foizi** tahsil olgan. Ayni paytda ular hissasiga **40 676 nafar** yoki **dual ta'lim o'quvchilarining 67,1 foizi** to'g'ri kelgan.


Dual ta'lim qamrovi **40 foiz va undan yuqori** bo'lgan texnikumlar soni **53 tani** tashkil etgan. Bu jami texnikumlarning **7,8 foiziga** teng. Ularda **29 052 nafar** yoki o'quvchilarning **6,6 foizi** tahsil olsa-da, dual ta'limdagi o'quvchilar soni **15 713 nafarga** yetgan. Mazkur natija respublikadagi barcha dual ta'lim o'quvchilarining **25,9 foizini** tashkil etadi.

Qamrov guruhlari	Texnikum soni	Jami o'quvchilar	Dual ta'limdagi o'quvchilar
20% va undan yuqori	206 ta (30,3%)	116 523 nafar (26,3%)	40 676 nafar (67,1%)
40% va undan yuqori	53 ta (7,8%)	29 052 nafar (6,6%)	15 713 nafar (25,9%)

8-jadval. Dual ta'lim qamrovi yuqori bo'lgan texnikumlarning jamlanma ko'rsatkichlari, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Natijalar dual ta'lim o'quvchilarining asosiy qismi qamrov darajasi yuqori bo'lgan texnikumlar hissasiga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi. Xususan, jami o'quvchilarning **26,3 foizi** tahsil olayotgan **206 ta** texnikum respublikadagi dual ta'lim o'quvchilarining **67,1 foizini** qamrab olgan.



7-rasm. Qamrovi yuqori bo'lgan texnikumlarda jami va dual ta'limdagi o'quvchilar ulushi, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Qamrovi yuqori bo'lgan texnikumlar tajribasini o'rganish **ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlari, dual ta'limga mos kasb va mutaxassisliklar, o'quv jarayonini ishlab chiqarish bilan uyg'unlashtirish** hamda **o'quvchilarni korxonalarga biriktirish amaliyotining** samarali modellarini aniqlash imkonini beradi.

Biroq yuqori qamrov ko'rsatkichini ta'lim sifatining mustaqil mezon sifatida talqin qilish to'g'ri emas. Uni bitiruvchilarning bandligi, kasbiy ko'nikmalari va ish beruvchilar bahosi bilan birgalikda o'rganish zarur.

VII. HUDUDLAR KESIMIDA DUAL TA'LIM QAMROVI

7.1. Hududlar bo'yicha umumiy ko'rsatkichlar

Dual ta'lim qamrovini hududlar kesimida tahlil qilish uning respublika bo'yicha bir tekis shakllanmaganini aniqlash imkonini beradi. Hududiy natijalarga texnikumlar va o'quvchilar soni, ta'lim yo'nalishlari tarkibi, ish beruvchilar bilan hamkorlik ko'lami hamda amaliyot bazalarining mavjudligi ta'sir qilishi mumkin. Biroq ushbu omillarning ta'sirini aniqlash uchun har bir hudud bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar talab etiladi.

Respublika bo'yicha dual ta'lim qamrovi **13,7 foizni** tashkil etgan. Hududlar kesimida esa mazkur ko'rsatkich **7 foizdan 24,8 foizgacha** bo'lgan oraliqda shakllangan. Eng yuqori va eng past hududiy qamrov darajalari o'rtasidagi farq **17,8 foiz punktni** tashkil etadi.

Hudud	Texnikumlar soni	Jami o'quvchilar	Dual ta'limdagi o'quvchilar	Dual ta'lim ulushi	Dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlar
Jizzax	33	21 176	5 258	24,8%	8
Namangan	54	36 833	6 652	18,1%	12
Xorazm	44	21 476	3 577	16,7%	11
Andijon	60	44 455	7 243	16,3%	14
Farg'ona	68	60 029	9 247	15,4%	17
Navoiy	27	14 571	1 981	13,6%	7
Qashqadaryo	66	47 074	6 359	13,5%	23
Buxoro	43	27 364	3 576	13,1%	14
Toshkent viloyati	64	37 123	4 601	12,4%	14
Sirdaryo	25	11 465	1 401	12,2%	7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	48	24 350	2 756	11,3%	11
Surxondaryo	53	30 065	3 073	10,2%	17
Samarqand	64	49 915	3 779	7,6%	21
Toshkent shahri	30	16 331	1 151	7,0%	18
Jami	679	442 227	60 654	13,7%	194

9-jadval. Hududlar kesimida dual ta'lim ko'rsatkichlari, 2026-yil 30-may


Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Dual ta'lim qamrovining eng yuqori darajasi **Jizzax viloyatida 24,8 foiz** qayd etilgan. Keyingi o'rinlarda **Namangan viloyati 18,1 foiz**, **Xorazm viloyati 16,7 foiz**, **Andijon viloyati 16,3 foiz** va **Farg'ona viloyati 15,4 foiz** bilan joylashgan.

Mazkur **5 ta** hududda qamrov darajasi **respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori**.

Navoiy viloyatidagi 13,6 foizlik va Qashqadaryo viloyatidagi 13,5 foizlik natijalar respublika o'rtacha ko'rsatkichiga yaqin. Buxoro, Toshkent, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida qamrov darajasi 10,2–13,1 foiz oralig'ida shakllangan.

Eng past natijalar **Toshkent shahrida 7 foiz va Samarqand viloyatida 7,6 foiz** qayd etilgan. Hududlar bo'yicha dual ta'lim qamrovi va uning respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbati 8-rasmda aks ettirilgan.



8-rasm. Hududlar kesimida dual ta'lim qamrovi, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hududiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi sezilarli farqlar dual ta'limni kengaytirish bo'yicha yagona yondashuv bilan cheklanmasdan, hududlarning ta'lim va mehnat bozori xususiyatlarini hisobga olgan **manzilli chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini** ko'rsatadi.

7.2. Dual ta'lim o'quvchilarining hududlar bo'yicha taqsimoti

Hududiy natijalarni baholashda qamrov darajasi bilan bir qatorda, dual ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilarning mutlaq sonini ham hisobga olish zarur.

Chunki o'quvchilar kontingenti katta bo'lgan hudud nisbatan pastroq qamrov darajasida ham respublika natijasiga salmoqli hissa qo'shishi mumkin.

Dual ta'limdagi o'quvchilarning eng yuqori mutlaq soni **Farg'ona viloyatida 9 247 nafar** qayd etilgan. Keyingi o'rinlarda **Andijon viloyati 7 243 nafar**, **Namangan viloyati 6 652 nafar**, **Qashqadaryo viloyati 6 359 nafar** va **Jizzax viloyati 5 258 nafar** natija bilan joylashgan.

Mazkur **5 ta** hududda dual ta'limda jami **34 759 nafar o'quvchi** tahsil olmoqda. Bu respublikadagi dual ta'lim o'quvchilari umumiy sonining **57,3 foiziga** teng.

Qolgan **9 ta** hudud hissasiga esa **25 895 nafar** yoki **42,7 foiz** o'quvchi to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha dual ta'limdagi o'quvchilar soni 9-rasmda keltirilgan.



9-rasm. Hududlar kesimida dual ta'limdagi o'quvchilar soni, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz axborot tizimi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Mutlaq son va qamrov darajasi bo'yicha hududlar o'zni bir xil emas. Masalan, **Farg'ona viloyati** dual ta'limdagi o'quvchilar soni bo'yicha 1-o'rinda bo'lsa-da, qamrov darajasi bo'yicha **15,4 foiz** bilan 5-o'rinda joylashgan.

Jizzax viloyati esa **5 258 nafar** o'quvchi bilan mutlaq son bo'yicha 5-, **24,8 foizlik qamrov darajasi bo'yicha 1-o'rinni** egallagan.

Mazkur farq hududiy natijalarni baholashda **dual ta'limdagi o'quvchilar soni va ularning jami o'quvchilar kontingentidagi ulushini birgalikda talqin qilish zarurligini** ko'rsatadi.

7.3. Dual ta'limda o'quvchilar qayd etilmagan texnikumlarning hududiy taqsimoti

Respublika bo'yicha **194 ta texnikumda dual ta'limda tahsil olayotgan o'quvchilar mavjud emas**. Ushbu texnikumlarning hududlar bo'yicha taqsimoti bir xil emas.

Dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlar soni **Qashqadaryo viloyatida 23 tani, Samarqand viloyatida 21 tani** tashkil etgan. **Toshkent shahrida** mazkur ko'rsatkich **18 tadan** hamda **Farg'ona va Surxondaryo viloyatlarida 17 tadan** qayd etilgan. **Ushbu 5 ta hudud hissasiga dual ta'lim mavjud bo'lmagan 96 ta texnikum yoki umumiy sonning 49,5 foizi to'g'ri keladi.**


Mazkur hududlardagi texnikumlarning umumiy soni va ular orasida dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlar ulushi 10-jadvalda keltirilgan.

Hudud	Jami texnikumlar	Dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlar	Texnikumlarning hududdagi ulushi
Qashqadaryo	66	23	34,8%
Samarqand	64	21	32,8%
Farg'ona	68	17	25,0%
Surxondaryo	53	17	32,1%
Toshkent sh.	30	18	60,0%

10-jadval. Dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlar soni yuqori bo'lgan hududlar, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: hududdagi ulush dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlar sonining tegishli hududdagi jami texnikumlar soniga nisbati asosida hisoblangan.



10-rasm. Dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlarning hududlar bo'yicha taqsimoti, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: qizil rangda mazkur ko'rsatkich eng yuqori bo'lgan 5 ta hudud ajratilgan.

Mutlaq son va hudud ichidagi nisbiy ulushni birgalikda baholash natijalarni aniqroq talqin qilish imkonini beradi.

Jumladan, **Toshkent shahrida** dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlar soni **18 tani** tashkil etsa-da, ular shahardagi jami **30 ta** texnikumning **60 foiziga** teng.

Bu respublika bo'yicha eng yuqori hududiy ulush hisoblanadi. 17 ta texnikum qayd etilgan **Farg'ona viloyatida** mazkur ulush **25 foizni**, **Surxondaryo viloyatida** esa **32,1 foizni** tashkil etgan.

Natijalar dual ta'limni kengaytirish choralari belgilashda **dual ta'lim mavjud bo'lmagan texnikumlarning mutlaq soni bilan bir qatorda, ularning hududdagi jami texnikumlar tarkibidagi ulushini ham hisobga olish zarurligini** ko'rsatadi.

Bunda ma'lumotlarning to'liqligi, tegishli kasblar bo'yicha ish beruvchilar ehtiyoji va dual ta'lim dasturlarini tashkil etish imkoniyatlari har bir hudud kesimida alohida o'rganilishi lozim.

7.4. Hududlarni 20 foizlik qamrov darajasiga yetkazish ehtiyoji

Hududlar kesimidagi qo'shimcha qamrov ehtiyoji har bir hududda dual ta'lim ulushini **20 foizlik tahliliy oraliq darajaga** yetkazish sharti asosida hisoblandi.

Mazkur ko'rsatkich 2030-yil uchun belgilangan **40 foizlik** rasmiy maqsadga bosqichma-bosqich yaqinlashish imkoniyatlarini baholash uchun qo'llanilgan tahliliy mezon hisoblanadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, Jizzax viloyatidan tashqari barcha hududlarda qo'shimcha qamrovga ehtiyoj mavjud. Qo'shimcha ehtiyoj eng yuqori bo'lgan beshta hududning natijalari 11-jadvalda keltirilgan.

Hudud	Jami o'quvchilar	Dual ta'limdagi o'quvchilar	Dual ta'lim ulushi	20 foizga o'tish uchun qo'shimcha qamrov
Samarqand	49 915	3 779	7,6%	6 204 nafar
Qashqadaryo	47 074	6 359	13,5%	3 056 nafar
Surxondaryo	30 065	3 073	10,2%	2 940 nafar
Toshkent v.	37 123	4 601	12,4%	2 824 nafar
Farg'ona	60 029	9 247	15,4%	2 759 nafar
Jami	224 206	27 059	12,0%	17 783 nafar


11-jadval. Dual ta'lim qamrovini 20 foizga yetkazish uchun qo'shimcha ehtiyoj eng yuqori bo'lgan hududlar, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: qo'shimcha qamrov ehtiyoji har bir hududdagi jami o'quvchilar sonining 20 foizi bilan dual ta'limdagi amaldagi o'quvchilar soni o'rtasidagi farq asosida hisoblangan.

Eng katta qo'shimcha ehtiyoj **Samarqand viloyatida** qayd etilgan bo'lib, hududni **20 foizlik** qamrov darajasiga yetkazish uchun **6 204 nafar o'quvchini** dual ta'limga qo'shimcha jalb qilish talab etiladi.

Mazkur ko'rsatkich **Qashqadaryo viloyatida 3 056 nafarni, Surxondaryo viloyatida 2 940 nafarni, Toshkent viloyatida 2 824 nafarni va Farg'ona viloyatida 2 759 nafarni** tashkil etadi.



11-rasm. Hududlarda dual ta'lim qamrovini 20 foizga yetkazish uchun zarur qo'shimcha qamrov, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: to'q ko'k rangda qo'shimcha qamrov ehtiyoji eng yuqori bo'lgan 5 ta hudud ajratilgan. Jizzax viloyatida amaldagi qamrov 24,8 foizni tashkil etgani sababli qo'shimcha ehtiyoj hisoblanmagan.

Hududlarning har birini alohida **20 foizlik** darajaga yetkazish uchun jami **28 818 nafar o'quvchini** qo'shimcha qamrab olish talab etiladi. Bu respublika bo'yicha hisoblangan **27 792 nafarlik** umumiy tafovutdan **1 026 nafarga** ko'p.

Mazkur farq Jizzax viloyatidagi 20 foizdan yuqori natija umumrespublika ko'rsatkichini qisman qoplashi va hududiy hisob-kitoblarning butun songa yaxlitlanishi bilan izohlanadi. Qo'shimcha ehtiyoj eng yuqori bo'lgan **5 ta** hudud hissasiga **17 783 nafar** yoki **jami ehtiyojning 61,7 foizi** to'g'ri keladi.

Hududlar bo'yicha aniqlangan qo'shimcha ehtiyojni kasbiy ta'limni rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadlari bilan bog'liq holda baholash zarur.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-316-son qarorida 2030-yilgacha 9-sinf bitiruvchilarining kasbiy ta'lim bilan qamrovini **50 foizga**, kasbiy ta'lim tizimida dual ta'lim ulushini esa **40 foizga** yetkazish belgilangan.

Shu asosda, mazkur bo'limdagi **20 foizlik** tahliliy mezon hududlarda qamrovni kengaytirishning dastlabki ehtiyojini baholashga xizmat qiladi.

Amaldagi o'quvchilar soni o'zgarmagan holda, har bir hududda dual ta'lim ulushini kamida **40 foizga** yetkazish ssenariysi bo'yicha jami **116 242 nafar o'quvchini qo'shimcha qamrab olish** talab etiladi.

Bunda har bir hudud uchun hisoblangan ehtiyoj alohida yuqoriga yaxlitlangan. Ushbu hisob hududlarni qiyoslash uchun qo'llanilgan bo'lib, qarorda har bir hududga alohida 40 foizlik majburiy ko'rsatkich belgilanganini anglatmaydi.

Maqsadli ulush oshishi bilan qo'shimcha ehtiyojning hududlar bo'yicha taqsimoti ham o'zgaradi. Xususan, **40 foizlik** ssenariyda eng katta ehtiyoj Samarqand viloyatida **16 187 nafar**, Farg'ona viloyatida **14 765 nafar**, Qashqadaryo viloyatida **12 471 nafar**, Andijon viloyatida **10 539 nafar** va Toshkent viloyatida **10 249 nafar** o'quvchini tashkil etadi.



12-rasm. Hududlarda dual ta'lim qamrovini 40 foizga yetkazish uchun zarur qo'shimcha qamrov, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Hatto 20 foizlik mezondan yuqori natijaga ega Jizzax viloyatida ham 40 foizlik darajaga erishish uchun qo'shimcha **3 213 nafar o'quvchini** jalb etish zarur bo'ladi. Demak, hududiy ustuvorliklar erishilishi ko'zlangan qamrov darajasiga qarab qayta baholanishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 28-avgustdagi nutqida¹² texnikumlardagi o'quvchilar qamrovini **1 mln nafarga yetkazish** tashabbusi bildirilgan.

Agar istiqbolda texnikumlarning jami o'quvchilar soni **1 mln nafarga** yetib, ushbu kontingentga **40 foizlik** dual ta'lim ulushi qo'llansa, dual ta'limda **400 ming nafar o'quvchini** qamrab olish zarur bo'ladi.

Bu hisobotdagi **60 654 nafar** o'quvchiga nisbatan **339 346 nafarga ko'p**. Mazkur miqdor ikki ko'rsatkichni birgalikda qo'llash asosidagi tahliliy ssenariydir.

Shu bois hududiy rejalarda amaldagi qamrov tafovutini kamaytirish bilan birga, kelgusi yillarda kasbiy ta'limga kirib keladigan o'quvchilar uchun ham dual ta'lim imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Har bir hudud bo'yicha yillik qabul hajmi, o'qishni davom ettirayotganlar va bitiruvchilar soni, ish beruvchilarning o'quvchilarni qabul qilish imkoniyati hamda talab yuqori bo'lgan kasblar hisobga olinishi kerak.

Qo'shimcha qamrov korxonalar bilan kelishilgan amaliy ta'lim o'rinlari, zarur jihozlar, malakali ustozlar va mashg'ulotlar jadvali bilan ta'minlanishi zarur. Bunday yondashuv hududlarda qamrovni oshirishni o'quvchilarning sifatli kasbiy tayyorgarligi va keyingi bandligi bilan bog'lash imkonini beradi.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat mustaqilligining o'ttiz besh yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, URL: <https://president.uz/oz/lists/view/9544>

VIII. KASB VA MUTAXASSISLIKLAR KESIMIDA DUAL TA'LIM QAMROVI

8.1. Dual ta'lim kontingentining asosiy yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti

Kasb va mutaxassisliklar kesimidagi tahlil dual ta'lim kontingenti yo'nalishlar o'rtasida bir tekis taqsimlanmaganini ko'rsatadi. Dual ta'limdagi o'quvchilar soni eng yuqori bo'lgan **10 ta kasb va mutaxassislikda 40 271 nafar o'quvchi** tahsil olmoqda. Bu respublikadagi **60 654 nafar** dual ta'lim o'quvchisining **66,4 foiziga** teng. Qolgan kasb va mutaxassisliklar hissasiga **20 383 nafar** yoki **33,6 foiz** to'g'ri keladi.

Eng yuqori uchta yo'nalish, ya'ni **maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi, avtomobillarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish** hamda **tikuvchilik** kasblarida jami **27 962 nafar** dual ta'lim o'quvchisi to'g'ri keladi. Bu respublika dual kontingentining **46,1 foizini** tashkil etadi.


Dual ta'limdagi o'quvchilar soni eng yuqori bo'lgan kasb va mutaxassisliklarning batafsil ko'rsatkichlari 12-jadvalda keltirilgan.

Kasb va mutaxassislik	Jami o'quvchi	Dual ta'limda	Ulushi	Texnikumlar soni
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi	13 823	10 931	79,1%	138
Avtomobillarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish	82 403	9 131	11,1%	397
Tikuvchi	26 395	7 900	29,9%	358
Avtomobil transportiga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	5 698	2 397	42,1%	170
Traktorch-mashinist	20 906	2 266	10,8%	183
Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisi	3 598	2 035	56,6%	59
Suv xo'jaligi va melioratsiya	2 493	1 776	71,2%	48
Oshpaz	5 749	1 505	26,2%	113
Sotuvchi, nazoratchi-kassir	5 460	1 454	26,6%	84
Veterinariya meditsinasi	1 843	876	47,5%	59
Birinchi 10 ta kasb va mutaxassislik bo'yicha jami	168 368	40 271	23,9%	-

12-jadval. Dual ta'limdagi o'quvchilar soni eng yuqori bo'lgan kasb va mutaxassisliklar, 2026-yil 30-may.

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Mazkur kasb va mutaxassisliklardagi dual ta'lim o'quvchilarining mutlaq soni 13-rasmda qiyosiy tartibda aks ettirilgan.



13-rasm. Dual ta'limdagi o'quvchilar soni eng yuqori bo'lgan kasb va mutaxassisliklar, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: to'q ko'k rangda dual ta'lim o'quvchilari soni eng yuqori bo'lgan uchta yo'nalish ajratilgan.

Eng yuqori mutlaq natija **maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi** yo'nalishida qayd etilgan: **13 823 nafar** o'quvchining **10 931 nafari** dual ta'limda tahsil olmoqda va qamrov darajasi **79,1 foizni** tashkil etadi.

Avtomobillarni ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish yo'nalishida dual ta'lim o'quvchilari soni **9 131 nafar** bilan ikkinchi yuqori natijani tashkil etsa-da, ushbu yo'nalishdagi jami **82 403 nafar** o'quvchiga nisbatan qamrov **11,1 foizga** teng.

Tikuvchilik kasbida esa **26 395 nafar** o'quvchining **7 900 nafari** dual ta'limda bo'lib, qamrov darajasi **29,9 foizni** tashkil etadi.

Natijalar **dual ta'limdagi o'quvchilarning mutlaq soni va qamrov darajasi har doim ham bir xil tartibni ifodalamasligini** ko'rsatadi. Shu sababli kasb va mutaxassisliklarni baholashda dual ta'lim o'quvchilari soni, ularning tegishli yo'nalish kontingentidagi ulushi hamda mazkur yo'nalish amalga oshirilayotgan texnikumlar soni birgalikda talqin qilinishi lozim.

8.2. Dual ta'lim qayd etilmagan yo'nalishlar

Kasb va mutaxassisliklar kesimidagi tahlil ayrim yo'nalishlarda o'quvchilar kontingenti va ularni amalga oshirayotgan texnikumlar soni yuqori bo'lishiga qaramay, dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchilar qayd etilmaganini ko'rsatadi.

Dual ta'lim qayd etilmagan, o'quvchilar kontingenti eng katta bo'lgan **10 ta** kasb va mutaxassislikda **120 657 nafar o'quvchi** tahsil olmoqda. Bu tahlil qamrovidagi **442 227 nafar** o'quvchining **27,3 foiziga** teng. Mazkur yo'nalishlar bo'yicha natijalar 13-jadvalda keltirilgan.

Kasb yoki mutaxassislik	Jami o'quvchi	Texnikumlar soni
Hamshiralik ishi	63 675	120
Feldsherlik ishi	13 143	87
Davolash ishi	12 314	75
Axborot vositalari mashinalari va kompyuter tarmoqlari	11 628	136
Farmatsiya	7 888	92
Funksional diagnostika ishi	3 968	50
Tibbiyot brigadasi hamshirasi	3 429	46
Stomatologiya ishi	2 518	46
Kon ishchisi	1 070	13
Qurilish ishlari ishchisi	1 024	27

13-jadval. Dual ta'lim qayd etilmagan, o'quvchilar kontingenti eng katta bo'lgan kasb va mutaxassisliklar, 2026-yil 30-may.


Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: texnikumlar soni tegishli kasb yoki mutaxassislik amalga oshirilayotgan texnikumlarni ifodalaydi. Bir texnikumda bir nechta yo'nalish mavjud bo'lishi mumkinligi sababli texnikumlar soni bo'yicha jami ko'rsatkich hisoblanmagan.

Eng katta kontingent **hamshiralik ishi** yo'nalishida qayd etilgan. Mazkur yo'nalish **120 ta** texnikumda amalga oshirilib, unda **63 675 nafar o'quvchi** tahsil olmoqda. **Feldsherlik ishida 13 143 nafar, davolash ishida 12 314 nafar** va **farmatsiya** yo'nalishida **7 888 nafar** o'quvchi mavjud bo'lishiga qaramay, **dual ta'lim o'quvchilari qayd etilmagan.**

Axborot vositalari mashinalari va kompyuter tarmoqlari yo'nalishi **136 ta** texnikumda amalga oshirilib, unda **11 628 nafar** o'quvchi tahsil olmoqda. Bu dual ta'lim qayd etilmagan holatlar faqat tibbiyot yo'nalishlari bilan cheklanmasligini ko'rsatadi.

Mazkur kasb va mutaxassisliklardagi o'quvchilar kontingenti 14-rasmda qiyosiy tartibda aks ettirilgan.



14-rasm. Dual ta'lim qayd etilmagan kasb va mutaxassisliklardagi o'quvchilar kontingenti, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: sariq rangda tibbiyot yo'nalishlari, ko'k rangda boshqa kasb va mutaxassisliklar ko'rsatilgan.

Jadvalga kiritilgan **tibbiyotga oid 7 ta** yo'nalishda jami **106 935 nafar o'quvchi** tahsil olmoqda. Bu dual ta'lim qayd etilmagan eng yirik 10 ta yo'nalish kontingentining **88,6 foizini** tashkil etadi. Bu natija tibbiyot yo'nalishlarida dual ta'limni tashkil etish va uni axborot tizimida aks ettirish holatini alohida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, dual ta'lim ko'rsatkichining nolga tengligi tegishli yo'nalishlarda amaliy mashg'ulotlar yoki ishlab chiqarish amaliyoti umuman mavjud emasligini anglatmaydi. Amaliy tayyorgarlik dual ta'limga qo'yilgan tashkiliy va huquqiy talablar asosida rasmiylashtirilmagan yoki ma'lumotlar Prof-emis.edu.uz tizimida to'liq aks ettirilmagan bo'lishi mumkin.

Shu sababli mazkur kasb va mutaxassisliklar bo'yicha **dual ta'lim dasturlarining amalda mavjudligi, ish beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar, amaliyot o'rinlari, mehnat xavfsizligi talablari va axborot tizimidagi ma'lumotlarning to'liqligi** alohida tekshirilishi lozim.

IX. TEXNIKUMLAR KESIMIDA INDIKATOR NATIJALARI

9.1. Asosiy reyting guruhidagi yetakchi texnikumlar

Asosiy reyting guruhida ishtirok etuvchi **556 ta** davlat texnikumining natijalari dual ta'lim qamrovi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Indikatorning eng yuqori qiymati tegishli guruhdagi maksimal natijaga nisbatan normallashtirilib, **8 ballik** shkala asosida hisoblangan.


O'rin	Texnikum nomi	Jami o'quvchi	Dual ta'limda	Ulush	Ball
1	Yangiyer shahar texnikumi	118	103	87,3%	8,00
2	Toshkent viloyati pedagogika texnikumi	437	377	86,3%	7,91
3	Qashqadaryo pedagogika texnikumi	731	564	77,2%	7,07
4	Qorako'l pedagogika texnikumi	553	412	74,5%	6,83
5	Dang'ara tuman 3-son texnikumi	946	680	71,8%	6,59

14-jadval. Asosiy reyting guruhida dual ta'lim qamrovi bo'yicha yetakchi texnikumlar, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Asosiy reyting guruhida **Yangiyer shahar texnikumi** yetakchilik qilgan. Texnikumda **118 nafar** o'quvchining **103 nafari** dual ta'limda tahsil olib, qamrov darajasi **87,3 foizni**, reyting bali esa **8 ballni** tashkil etgan.

Toshkent viloyati pedagogika texnikumida dual ta'lim qamrovi **86,3 foiz** va reyting bali **7,91 ball** bo'lgan. Keyingi o'rinlarni **Qashqadaryo pedagogika texnikumi** **77,2 foiz**, **Qorako'l pedagogika texnikumi** **74,5 foiz** va **Dang'ara tuman 3-son texnikumi** **71,9 foizlik** natijalar bilan egallagan.



15-rasm. Asosiy reyting guruhida dual ta'lim qamrovi bo'yicha yetakchi texnikumlar, 2026-yil 30-may

Manba: Prof-emis.edu.uz ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Izoh: ustunlar dual ta'lim qamrovini, ular yonidagi qo'shimcha ko'rsatkichlar esa reyting balini ifodalaydi.

Yetakchi **5 ta** texnikumda jami **2 785 nafar o'quvchi** tahsil olib, ularning **2 136 nafari** dual ta'limga qamrab olingan. Ushbu texnikumlardagi umumiy qamrov darajasi **76,7 foizni** tashkil etadi.

Biroq mazkur beshta texnikum o'quvchilari respublika bo'yicha jami kontingentning **0,6 foizini**, ulardagi dual ta'lim o'quvchilari esa respublika dual kontingentining **3,5 foizini** tashkil etadi. Shu sababli yuqori foiz ko'rsatkichlarini umumrespublika qamroviga ta'siri bilan to'g'ridan-to'g'ri tenglashtirish maqsadga muvofiq emas.

Yetakchi beshtalikda nomi bo'yicha pedagogikaga ixtisoslashgan **3 ta** texnikum mavjud. Ularning tajribasini o'rganishda **hamkor ish beruvchilar tarkibi, amaliyot o'rinlari, dual ta'lim shartnomalari, ta'lim yo'nalishlari va o'quvchilar kontingenti hajmi** birgalikda hisobga olinishi lozim.

9.2. Indikator natijalarini talqin qilish

Texnikumlar kesimidagi natijalar dual ta'lim qamrovi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Asosiy reyting guruhida eng yuqori qamrov **87,3 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **121 ta** texnikumda mazkur ko'rsatkich nolga teng. Bu dual ta'limning texnikumlar tizimiga kirib borish darajasi bir xil emasligini anglatadi.

Reyting natijalarini talqin qilishda indikatorning nisbiy xususiyatini hisobga olish zarur. Xususan, 1-o'rindagi Yangiyer shahar texnikumida **118 nafar** o'quvchining **103 nafari** dual ta'limda tahsil olgani sababli qamrov **87,3 foizni** tashkil etgan. 5-o'rindagi Dang'ara tuman 3-son texnikumida esa dual ta'limdagi o'quvchilar soni **680 nafar** bo'lib, 1-o'rindagi texnikum ko'rsatkichidan qariyb **6,6 baravar yuqori**. Biroq jami o'quvchilar soniga nisbatan qamrov **71,8 foizni** tashkil etgani uchun uning reyting bali nisbatan past shakllangan.

Mazkur qiyos **reytingdagi o'rin dual ta'limdagi o'quvchilarning mutlaq soniga emas, ularning texnikum umumiy kontingentidagi ulushiga asoslanishini** ko'rsatadi. Shu sababli yuqori reyting bali texnikumning respublika dual ta'lim kontingentiga eng katta mutlaq hissa qo'shganini anglatmaydi.

Shuningdek, maksimal 8 ballning qayd etilishi dual ta'lim sifati to'liq ta'minlangani yoki belgilangan strategik maqsadlarga erishilganini avtomatik ravishda tasdiqlamaydi. Reyting bali tegishli guruhdagi eng yuqori qamrov ko'rsatkichiga nisbatan normallashtiriladi. U shartnomalarning bajarilishi, ish joylarining ta'lim dasturiga muvofiqligi, ishlab chiqarishdagi ustozlar malakasi, o'quvchilarning dasturni yakunlashi va bitiruvchilar bandligini bevosita baholamaydi.

Mazkur indikator qamrov miqyosini aniqlash uchun xizmat qiladi, dual ta'limning mazmuni va sifatini baholash esa qo'shimcha ko'rsatkichlarni talab etiladi.

Texnikumlar o'rtasidagi natijalar farqi dual ta'limni kengaytirish bilan bir qatorda uning sifatini ta'minlash mexanizmlarini ham o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan keyingi bobda dual ta'limni tashkil etish va baholashga oid **xalqaro tajriba** hamda **sifat mezonlari** tahlil qilinadi.

X. XALQARO TAJRIBA VA DUAL TA'LIM SIFATI MEZONLARI

10.1. Sifatli dual ta'limning xalqaro mezonlari

Xalqaro tajribada dual ta'limning samaradorligi ta'lim tashkilotidagi nazariy tayyorgarlik va ish joyidagi amaliy o'qitishning o'zaro muvofiqligi, ish beruvchining mas'uliyati, o'quvchining huquqiy himoyasi hamda egallangan ko'nikmalarning rasmiy tan olinishi bilan belgilanadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining **«Sifatli shogirdlik to'g'risida»gi 208-son tavsiyasida** ish joyida va ta'lim tashkilotida olib boriladigan o'qitishni uyg'unlashtiruvchi dasturlarning asosiy belgilari ko'rsatilgan.

Unga ko'ra, bunday tayyorgarlik yozma shartnoma asosida tashkil etilishi, aniq tuzilgan o'quv dasturini qamrab olishi, o'quvchiga mehnat haqi yoki boshqa moliyaviy to'lovni nazarda tutishi hamda tan olinadigan malaka bilan yakunlanishi lozim.¹³

Mazkur tavsiya milliy tizimlarda sifatli dual ta'limni tashkil etish uchun quyidagi o'zaro bog'liq mezonlarni ajratish imkonini beradi:

- **huquqiy va tashkiliy aniqlik** – ta'lim tashkiloti, ish beruvchi va o'quvchining huquqlari, majburiyatlari hamda mas'uliyati yozma shartnomada aniq belgilanishi;

- **o'quv mazmunining yaxlitligi** – ta'lim tashkilotidagi nazariy mashg'ulotlar va ish joyidagi amaliy tayyorgarlik yagona kompetensiyalar tizimiga asoslanishi;

- **ish joyining tayyorgarligi** – korxonada zarur jihozlar, xavfsiz mehnat sharoitlari va o'quvchiga rahbarlik qiladigan malakali ustoz mavjud bo'lishi;

- **o'quvchining huquqiy va ijtimoiy himoyasi** – mehnat va dam olish vaqti, moliyaviy to'lov, mehnat muhofazasi, ijtimoiy ta'minot hamda nizolarni hal qilish tartibi kafolatlanishi;

- **natijalarni baholash va tan olish** – o'quvchi egallagan kasbiy kompetensiyalar mustaqil baholanishi va rasmiy tan olinadigan malaka bilan tasdiqlanishi.

Xalqaro yondashuvda ish beruvchi faqat amaliyot o'rnini taqdim etuvchi tomon emas, balki **ta'lim mazmuni, o'qitish jarayoni va natijalar sifati**

¹³ International Labour Organization. *Quality Apprenticeships Recommendation, 2023 (No. 208)*, 1, 6–9 va 15–19-bandlar. URL: <https://www.ilo.org/publications/guide-policymakers-quality-apprenticeships-recommendation-2023-no-208> (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

uchun hamkorlikda mas'ul subyekt sifatida qaraladi. Shuningdek, davlat organlari, ish beruvchilar va xodimlar vakillarining dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish, monitoring qilish va baholashda ishtirok etishi sifatni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur mezonlar nuqtai nazaridan ushbu sharhda hisoblangan indikator dual ta'limning **miqdoriy qamrovini** tavsiflaydi. Biroq u shartnomalarning mazmuni va bajarilishi, ish joylarining o'quv dasturiga muvofiqligi, ustozlar malakasi, o'quvchilarning mehnat muhofazasi, dasturni yakunlash darajasi va bitiruvchilarning keyingi bandligini bevosita baholamaydi.

Shu sababli kelgusida dual ta'lim monitoringini qamrov ko'rsatkichi bilan cheklamasdan, **shartnomalarning amal qilishi, ish beruvchilar ishtiroki, ish joyidagi o'qitish sifati, dasturni yakunlash va bandlik natijalarini** qamrab oluvchi qo'shimcha ko'rsatkichlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq. Bu dual ta'limning miqyosi bilan bir qatorda uning mazmuni va amaliy natijadorligini ham baholash imkonini beradi.

10.2. Germaniyada dual kasbiy ta'limni tashkil etish va sifatni nazorat qilish

Germaniya dual kasbiy ta'lim tizimining asosiy xususiyati o'qitish jarayonining **korxona va kasbiy ta'lim tashkilotida** parallel tashkil etilishidir. O'quvchi korxona bilan kasbiy tayyorgarlik shartnomasini tuzadi va ta'lim davrida bir vaqtning o'zida o'quvchi hamda korxona xodimi maqomiga ega bo'ladi. Korxona ish joyidagi amaliy tayyorgarlikni ta'minlaydi va o'quvchiga belgilangan tartibda moliyaviy to'lov amalga oshiradi.¹⁴

Germaniyada ish joyidagi tayyorgarlik mazmuni har bir rasman tan olingan kasb bo'yicha ishlab chiqilgan milliy o'quv reglamentlari asosida belgilanadi. Ularda kasbning nomi, o'qitish davomiyligi, egallanishi lozim bo'lgan bilim va kompetensiyalar, ta'lim mazmunining vaqt bo'yicha taqsimoti hamda yakuniy imtihon talablari aks ettiriladi.

Bu o'quvchining qaysi korxonada tahsil olishidan qat'i nazar, **kasbiy tayyorgarlikning yagona minimal standartini** ta'minlashga xizmat qiladi.

Korxona umumiy o'quv reglamenti asosida har bir o'quvchi uchun alohida amaliy tayyorgarlik rejasini ishlab chiqadi.

¹⁴ Bundesinstitut für Berufsbildung. *The Dual System: Young People Study in the Company and at School*. URL: <https://www.bibb.de/en/77203.php> (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

Ushbu reja kasbiy tayyorgarlik shartnomasi bilan birgalikda vakolatli palataga taqdim etiladi. Shu tariqa ish joyidagi o'qitish korxonaning kundalik ish jarayoni bilan cheklanib qolmay, belgilangan kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.

Dual ta'lim sifatini ta'minlashda savdo-sanoat va hunarmandchilik palatalari alohida o'rin tutadi.

Ular kasbiy tayyorgarlik shartnomalarini ro'yxatga oladi, korxona va ish joyidagi ustozlarning belgilangan talablarga muvofiqligini baholaydi, korxonalarga uslubiy maslahat beradi hamda oraliq va yakuniy imtihonlarni tashkil etadi.¹⁵

Natijada ta'lim beruvchi korxona bilan uning faoliyatini nazorat qiluvchi va yakuniy ko'nikmalarni baholovchi tuzilma o'rtasida vakolatlar ajratilgan.

Germaniya tajribasi dual ta'lim sifati faqat ta'lim tashkiloti va korxona o'rtasida shartnoma mavjudligi bilan ta'minlanmasligini ko'rsatadi.

Buning uchun **korxonaning o'qitish imkoniyati, ish joyidagi ustozning malakasi, kasb bo'yicha yagona ta'lim standarti, muntazam tashqi nazorat va mustaqil yakuniy baholash** mexanizmlari birgalikda amal qilishi lozim.

Mazkur tajribani O'zbekiston sharoitida to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish maqsadga muvofiq emas, chunki mamlakatlarning institutsional va iqtisodiy sharoitlari o'zaro farq qiladi.

Biroq Germaniya modelidagi ayrim mexanizmlar texnikumlarda dual ta'lim sifatini oshirish uchun amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, dual ta'limga o'quvchi qabul qiladigan korxonalarning tayyorgarligini oldindan baholash, har bir o'quvchi uchun ish joyidagi o'qitish rejasini shakllantirish, malakali ustozni biriktirish, shartnomalarni yagona elektron reyestrda yuritish va egallangan ko'nikmalarni tashqi baholash mexanizmlarini takomillashtirish mumkin.

Bu yondashuvlar dual ta'lim qamrovining kengayishi **real ish joylari va sifatli kasbiy tayyorgarlik bilan ta'minlanishiga** xizmat qiladi.

10.3. Shveysariyada dual ta'limni hamkorlik asosida boshqarish

Shveysariya kasbiy ta'lim tizimi **federatsiya, kantonlar va professional tashkilotlarning umumiy mas'uliyati** asosida boshqariladi.

¹⁵ Bundesinstitut für Berufsbildung. *Competent Bodies in Germany*.
URL: <https://www.bibb.de/en/146199.php> (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

Ushbu uch tomon ta'lim mazmunini mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiqlashtirish, yetarli amaliyot o'rinlarini shakllantirish va kasbiy tayyorgarlik sifatini ta'minlashda o'zaro kelishilgan vazifalarni bajaradi.¹⁶

Federatsiya kasbiy ta'lim tizimini strategik boshqarish va umumiy normativ talablarni belgilash uchun mas'ul.

Kantonlar kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi, kasbiy ta'lim tashkilotlari va korxonalaridagi amaliy tayyorgarlikni nazorat qiladi, shuningdek, yoshlar va kattalar uchun kasbiy yo'naltirish xizmatlarini tashkil etadi.

Professional tashkilotlar tarkibiga ish beruvchilar birlashmalari, tarmoq uyushmalari, ijtimoiy hamkorlar va kasbiy ta'limni amalga oshiruvchi boshqa tuzilmalar kiradi.

Ular tegishli kasb bo'yicha ta'lim mazmuni va kompetensiya talablarini belgilashda ishtirok etadi.

Korxonalar esa amaliyot o'rinlarini yaratadi va o'quvchilarga ish joyida rahbarlik qiladigan mutaxassislarni biriktiradi.

Mazkur modelda dual ta'lim alohida kasbiy ta'lim tashkiloti va korxona o'rtasidagi ikki tomonlama munosabat bilan cheklanmaydi.

Kasbiy standartlarni belgilash, o'qitishni tashkil etish, amaliyot o'rinlarini shakllantirish va sifatni nazorat qilish turli ishtirokchilar o'rtasida taqsimlangan.

Bu mehnat bozori talablaridagi o'zgarishlarni ta'lim dasturlariga nisbatan tez kiritish va ish beruvchilarning tizimli ishtirokini ta'minlash imkonini beradi.

Shveysariya tajribasining O'zbekiston uchun muhim jihatida ish beruvchilarni faqat alohida korxonalar darajasida emas, balki **tarmoq uyushmalari** va **professional birlashmalar orqali** dual ta'limni boshqarishga jalb etishdan iborat.

¹⁶ State Secretariat for Education, Research and Innovation. *Swiss Vocational and Professional Education and Training System*, 2024.

URL: https://www.sbf.admin.ch/dam/sbf/en/dokumente/2024/07/bbch_2024.pdf.download.pdf/BBCH_2024_EN.pdf (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

State Secretariat for Education, Research and Innovation. *National and International Cooperation in the Education, Research and Innovation Sector*.

URL: <https://www.sbf.admin.ch/en/national-and-international-cooperation-in-the-eri-sector> (murojaat qilingan sana: 21.08.2026).

Bunday yondashuv bir texnikumning o'zi yetarli amaliyot o'rinlarini topa olmagan hollarda bir nechta korxona imkoniyatlarini birlashtirish, umumiy o'quv talablarini belgilash va ish joyidagi tayyorgarlik sifatini muvofiqlashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Hududlar va kasblar kesimida aniqlangan farqlarni hisobga olgan holda, tarmoq va hudud darajasida dual ta'lim bo'yicha muvofiqlashtiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Xususan, ish beruvchilar birlashmalari ishtirokida kasblar bo'yicha amaliyot o'rinlariga ehtiyojni aniqlash, korxonalarining o'qitish salohiyatini baholash va bir nechta texnikum uchun umumiy hamkorlik tarmoqlarini shakllantirish mumkin.

Shuningdek, **tibbiyot, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi va sanoat** kabi sohalarda dual ta'limni yagona tartibda tashkil etishdan ko'ra, **tarmoqning ish jarayoni, xavfsizlik talablari va kasbiy ko'nikmalarining soha xususiyatiga mos alohida yondashuv** qo'llanilishi lozim.

Bu dual ta'lim shaklini turli kasb va mutaxassisliklarga mazmunan moslashtirish imkonini beradi.

10.4. Xalqaro yondashuvlarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari

Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalari, Germaniya va Shveysariya tajribasi dual ta'limning samarali modeli yagona tashkiliy mexanizmga emas, balki o'zaro bog'langan huquqiy, ta'limiy va iqtisodiy vositalarga asoslanishini ko'rsatadi.

Ushbu yondashuvlarning asosiy xususiyatlari va O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan yo'nalishlari 15-jadvalda umumlashtirilgan.

Xalqaro yondashuv	Asosiy mexanizm	Sifatni ta'minlashdagi ahamiyati	O'zbekistonda qo'llash yo'nalishi
Xalqaro mehnat tashkiloti	Yozma shartnoma; ish joyida va ta'lim tashkilotida uyg'unlashtirilgan o'qitish; moliyaviy to'lov; ijtimoiy himoya; tan olinadigan malaka	O'quvchining huquqlari, ta'lim mazmuni va tomonlarning mas'uliyatini yagona sifat doirasida belgilaydi	Shartnoma, mehnat muhofazasi, ijtimoiy himoya, dasturni yakunlash va malaka natijalarini monitoring qilish
Germaniya	Milliy kasbiy reglamentlar; korxonadagi o'qitish rejasi; malakali ustoz; palatalar nazorati va mustaqil imtihon	Turli korxonalardagi tayyorgarlik mazmunini qiyoslanadigan yagona standartga keltiradi	Korxona va ustozlar tayyorgarligini baholash, shartnomalar reyestri, ish joyidagi reja va tashqi baholashni joriy etish
Shveysariya	Davlat, hududiy organlar va professional	Mehnat bozori ehtiyojlarini ta'lim	Tarmoq uyushmalari va hududiy hamkorlik

Xalqaro yondashuv	Asosiy mexanizm	Sifatni ta'minlashdagi ahamiyati	O'zbekistonda qo'llash yo'nalishi
	tashkilotlarning umumiy mas'uliyati; tarmoqlar ishtirokida ta'lim mazmunini belgilash	mazmuniga tez kiritish va amaliyot o'rinlarini muvofiqlashtirish imkonini beradi	tarmoqlarini shakllantirish, sohalar xususiyatiga mos differensial yondashuvni qo'llash

15-jadval. Dual ta'lim bo'yicha xalqaro yondashuvlar va ularni O'zbekistonda qo'llash yo'nalishlari

Manba: Xalqaro mehnat tashkiloti, Germaniya Kasbiy ta'lim va tayyorgarlik federal instituti hamda Shveysariya Ta'lim, tadqiqot va innovatsiyalar davlat kotibiyati materiallari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qiyosiy tahlil xalqaro modellarda **4 ta** umumiy tamoyil mavjudligini ko'rsatadi:

- dual ta'limni rasmiy shartnoma va aniq o'quv dasturi asosida tashkil etish;
- korxona va ustozning tayyorgarligini baholash;
- ta'lim mazmunini ish beruvchilar ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirish;
- o'quv natijalarini mustaqil baholash va tan olish.

O'zbekistonda mazkur mexanizmlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki sohalar va hududlar xususiyatiga moslashtirib qo'llash maqsadga muvofiq.

Xalqaro tajriba asosida O'zbekistonda dual ta'lim monitoringini ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda shakllantirish maqsadga muvofiq: **birinchi yo'nalish qamrov ko'lamini, ikkinchi yo'nalish esa ta'lim sifati va natijadorligini baholashi** lozim.

XI. YAKUNIY XULOSALAR VA AMALIY TAVSIYALAR

11.1. Tahlilning asosiy xulosalari

Prof-emis.edu.uz axborot tizimining 2026-yil 30-may holatidagi ma'lumotlari asosida respublika texnikumlarida dual ta'limning qamrovi, **bosqichlar, mulkchilik shakllari, hududlar, kasb va mutaxassisliklar** hamda **alohida texnikumlar** kesimidagi natijalari kompleks tahlil qilindi.

Tahlil quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, ma'lumotlari shakllangan **679 ta** texnikumda jami **442 227 nafar** o'quvchi tahsil olmoqda. Ularning **60 654 nafari dual ta'limga qamrab olingan bo'lib, umumiy ko'rsatkichning 13,7 foizni** tashkil etadi.

Amaldagi kontingent o'zgarmas deb olinganda, 2030-yilgi 40 foizlik maqsadga erishish uchun dual ta'limdagi o'quvchilar sonini qo'shimcha **116 237 nafarga** oshirish talab etiladi.

Ikkinchidan, dual ta'lim ko'plab texnikumlarda joriy etilgan bo'lsa-da, qamrov darajasi bir xil shakllanmagan. **485 ta** texnikumda dual ta'lim o'quvchisi mavjud, **194 ta** texnikumda esa dual ta'lim qayd etilmagan.

Nol natijali texnikumlarning **191 tasida 124 889 nafar o'quvchi** tahsil olayotgani mazkur guruh qamrovni oshirishning asosiy zaxiralaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Uchinchidan, dual ta'lim o'quvchilarining asosiy qismi qamrovi yuqori bo'lgan texnikumlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qamrovi **20 foiz** va undan yuqori bo'lgan **206 ta** texnikum hissasiga dual ta'lim o'quvchilarining **67,1 foizi** to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, dual ta'lim mavjud bo'lmagan yoki qamrovi **5 foizga** yetmagan **242 ta** texnikumda umumiy o'quvchilarning **37,5 foizi** tahsil olsada, ularning dual ta'lim kontingentidagi ulushi faqat **2,2 foizni** tashkil etadi.

To'rtinchidan, hududlar kesimidagi farqlar sezilarli.

Eng yuqori qamrov Jizzax viloyatida **24,8 foiz**, eng past ko'rsatkich esa Toshkent shahrida **7 foiz** darajasida qayd etilgan.

Farg'ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari hissasiga dual ta'limdagi jami o'quvchilarning **57,3 foizi** to'g'ri keladi. Bu respublika bo'yicha dual ta'lim o'quvchilarining katta qismi ayrim hududlar hissasiga to'g'ri kelayotganini ko'rsatadi.

Beshinchidan, dual ta'lim kontingenti bosqichlar bo'yicha ham notekis taqsimlangan. Dual ta'limdagi jami o'quvchilarning **74,6 foizi birinchi bosqichda** tahsil olmoqda.

Birinchi bosqichda qamrov **17,6 foizni** tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda **9,6 foiz** va uchinchi bosqichda **1,8 foiz** darajasida qayd etilgan. Mazkur holat yangi qabullar hisobiga shakllangan.

Oltinchidan, kasb va mutaxassisliklar kesimidagi tahlil dual ta'limni barcha yo'nalishlarda bir xil yondashuv asosida joriy etish **kutilgan natijani to'liq bermasligi mumkinligini** ko'rsatadi.

Dual ta'lim shakli qayd etilmagan, biroq o'quvchilar soni eng yuqori bo'lgan 10 ta yo'nalishda jami **120 657 nafar** o'quvchi tahsil olmoqda. Shundan **106 935 nafari** yoki **88,6 foizi tibbiyot yo'nalishlari** hissasiga to'g'ri keladi.

Bu esa dual ta'limni rivojlantirishda har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan tashkiliy va huquqiy mexanizmlarni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Yettinchidan, nodavlat texnikumlarda dual ta'lim qamrovi past darajada qolmoqda. Ushbu sektordagi **51 ta** texnikumda jami **33 537 nafar** o'quvchi tahsil olmoqda, shundan **381 nafari** yoki **1,1 foizi** dual ta'limga qamrab olingan.

